

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



TURKIY TILLAR FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi

4-“A” kurs talabasi

ISOQULOV ABDULLO OBLOQUL O‘G‘LI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: «O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA MAVZU VA
OBRAZLAR TALQINI»**

Talaba:

A.Isoqulov

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent K.Tashanov

Kafedra mudiri:

f.f.n., dotsent S.Matyakupov

*O‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2021- yil
12- maydagi 6- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS 2021

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 - O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Isoqulov Abdullo Obloqul o'g'lining «O'tkir Hoshimov ijodida mavzu va obrazlar talqini» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «____» ball («____%») qo'yilsin.

DAK kotibi:

M.Ergashev

MUNDARIJA:

KIRISH.....	4
I BOB. O‘TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA DAVR MUAMMOLARI VA UNING BADIY TALQINI.....	11
1.1. Yozuvchi va davr.....	11
1.2. Insoniy his-tuyg‘ular kashfiyotchisi (“Ikki eshik orasi” romani misolida).	16
II BOB. MILLIY AN‘ANALAR TASVIRI VA UNING OBRAZ TAKOMILIDAGI BADIY VAZIFADOSHLIGI.....	28
2.1. Milliy an‘ana va tasvir o‘ziga xosligi.....	28
2.2. Davr, mavzu, obraz va muammoli roman.	45
III BOB. TA‘LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI	50
3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar.....	50
3.2. Dars ishlanmasi.	60
XULOSA	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kundagi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renesans"ni amalga oshirish uchun eng avvalo bugungi har jabhadan xabardor, bilim salohiyati kuchli, dunyoqarashi keng bir so'z bilan aytganda bugungi "komil inson"ni tarbiyalashi ta'lim sohasi oldidagi muhim vazifalardan bo'lib turibdi. Shuning uchun ham ta'lim sohasiga yangicha nuqtai nazar bilan qarash, har sohani milliylik tamoilidan kelib chiqqan holda shakllantirib, jamiyat hayotiga tadbqiq qilish, bugungi oldimizdagi yuksak vazifa.

Shularni inobatga olib Prezidentimiz tashabbusi bilan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qayta ko'rib chiqilib, 2017-2021- yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqildi. Bu strategiyada ta'lim sohasida oshirilishi lozim bo'lgan dolzarib vazifalar belgilandi. Jumladan, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi zamonning kechiktirib bo'lmas talabi bo'lmoqda.

Xususan, adabiyot sohasida raqobatdosh kadrlar tayyorlashda faqatgina o'quvchiga mazmuning yodlatish emas, balki asarning badiiy g'oyasini o'quvchining qalbiga, ruhiga singdirish shu orqali bugungi globallashuv davrida yoshlarimizni yot g'oyalar girdobiga tushib qolmaslikni oldini olish hamda o'zi fikrini erkin bayon qiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Shuning uchun ham adabiyot sohasiga oddiy bir jarayon emas, balki millat taqdirini hal qiladigan soha sifatida qarashni taqqozo qilmoqda. Bu borada professor B.To'xliiev mushohada yuritar ekan: *"Adabiyot o'qitish, boshqa fanlarni o'qitishdan anchayin keskin farq qiladi. Shunga ko'ra, uni fan sifatida qaraydigan bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar ham kam emas. Demak, ular adabiyot o'qitishni ham san'at bilan tenglashtirishadi. Amaliyotchilik nuqtai nazaridan qaraydiganlar esa, adabiyot o'qitish metodikasini darslarni o'tilishiga*

bevosita yordam beradigan, har bir darsning yaxshi va samarali bo'lishiga yordam bera oladigan soha deb qarashadi.”¹

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib “O‘tkir Hoshimov ijodida mavzu va obrazlar talqini” mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishimizda ijodkor asarlaridagi insoniylik konsepsiyasi va obrazlar talqinida aks etishiga hamda umumta’lim maktablarida o‘qitish usullariga ko‘proq to‘xtab o‘tamiz.

Hozirgi globallashuv davridagi taraqqiyot va o‘zgarishlar hamma soha singari adabiyot sohasiga ham ulkan vazifalar qo‘ymoqda. Eng avvalo, adabiyot darslarida o‘quvchi ongiga ma’naviyat tushunchasini yetkazish, uning insoniy his tuyg‘ularini shakillantirish va rivojlantirish, bir so‘z bilan aytganda bugungi “Komil inson”ni tarbiyalash adabiyot sohasining bosh maqsadi. Shunday ekan, ijodkorlari hayoti va ijodi yo‘lini ko‘rsatish, asarlarini o‘rganish va sharhlash orqali o‘quvchiga asarning mazmuni va asardagi insoniylik konsepsiyalarni singdirish orqali mehr, oqibat, vatanga muhabbat, vijdon va iymon kabi tushunchalarni singdirish mavzuni qanchalik dolzarb ekanligi ko‘rsatib turadi.

Tadqiqotning o‘rganilish darajasi: O‘zining sermazmun asarlari bilan xalqimiz ko‘nglidan joy olgan buyuk adib O‘tkir Hoshimov ijodiga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ijodkorning o‘ziga xos uslubi, asarlida ko‘tarilgan davr muammolaring xilma-xilligi, insonga xos tuyg‘ularning obrizlar orqali tahlil qilinishi va bu tuyg‘ularni yosh avlodga yetkazish masalasida ko‘pgina adabiyotshunos olimlar, tadqiqotchilar samarali yumushlar olib bormoqda. Ayni shu masalalar bo‘yicha ko‘pgina nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalar himoya qilingan. Bundan tashqari ilmiy va publitsistik maqolalar respublikamiz va xorij matbuotida muntazam tarzda e’lon qilinib kelmoqda.

Yozuvchining badiiy obraz yaratish mahorati masalalari adabiyotshunoslikda atroflicha o‘rganilgan va bu borada I.Sultonov, H.Yoqubov, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Karimov, S.Mirvaliev, B.Nazarov, U.Normatov, A.Rasulov va boshqalar qator tadqiqotlar yaratilgan.

¹ To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.; A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-y, 3-b

Bu borada adib asarlari yuzasidan ayrim maqolalar², kitoblar³, tadqiqotlarda⁴ aytilgan fikrlar mavjud.

O‘tkir Hoshimov ijodida milliy va umuminsoniy qadriyatlar talqini, milliy va umuminsoniy motivlar, obrazlar yaratilishidagi evrilishlar, tadrij va takomil muammolari mazkur bitiruv malakaviy ishi doirasida ilk bor o‘rganilmoqda. Mazkur masalaga bag‘ishlangan ishlar qatorida muallifning Respublika miqyosida o‘tkazilgan anjumanlarda qilgan ma’ruza tezislari chop etilganini ham qayd etib o‘tishni istardik.⁵

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi: Bitiruv malakaviy ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasining “O‘zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o‘zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari: Adabiy ta’limda innovatsion texnologiyalar” mavzusidagi ilmiy-innovatsion hamkorlik dasturi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi hamda 2020-2021 o‘quv yiliga mo‘ljallangan bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki doirasida amalga oshirildi.

² Kўshjonov M. Onaga taъzim // Qishloq haqiqati. – Toshkent, 1982. - 20 mart.; Mamajonov S. Ona – tabiat ixtirosi // Sovet Ўzbekistoni. – Toshkent, 1982. - 16 may.; Sharafiddinov O. Ona // Ўzbekiston adabiyoti va sanъati. – Toshkent, 1985. - 5 mart.; Mirvaliev S. Ona haqida kўshiq // Ўzbekiston adabiyoti va sanъati. – Toshkent, 1982. - 3 mart.; Normatov U. Takdirlar romani // Ўzbekiston adabiyoti va sanъati. – Toshkent, 1985. - 27 noyabr.; Shukurov N. Dunёning ishlari // Guliston. – Toshkent, 1982. - №3. – B.16.; Sulmonova M. Oila va ёзуvchi pozitsiyasi // Ўzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. - №5. – B.32.; Inogomov P. Xalq haётining ёркиn tasviri // Qishloq haqiqati. – Toshkent, 1986. - 14 yanvar.; Rasulov A. Roman – эхтирослар ва haqiqatlar dunёsi // Ўzbekiston adabiyoti va sanъati. Toshkent, - 1996. -15 oktyabr.; Abdullaev O. Notaniш orolga saёхat // Guliston. – Toshkent, 1991. - №3. - B. 22.

³ Rasulov A. Ў.Xoшимov. «Ўzbekiston ёшлари мукофоти лауреатлари» китоби. – Т.: Университет, 1977.; Rasulov A. Tankidchilik ufklari. – Т.: Adabiyet va sanъat, 1985.; Rasulov A. Yangi zamон, yangi qahramon. – Т.: Adabiyet va sanъat, 1978.; Rasulov A. Ardokli adib. – Т.: Sharq, 2001.; Sulmonova M. Ёзуvchi uslubiga doir. – Т.: Fan, 1973.; Karimov X. Ў.Xoшимov. – Т.: Maъnaviyat, 1998.

⁴ Karimov X. Xozirgi Ўzbek nasrida haёт haqiqati va инсон концепцияси: Филол. fanlari доктори ... дисс. – Toshkent, 1994. – 368 б.; Жўраев Т. Онг оқими ва tasviriylik: Филол. fanlari номзоди ... дис. – Т.: 1994. – 139 б.; Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бadiiy nutқning roli: Филол. fanlari номзоди... дисс– Т.: 1994. – 134 б.; Имомкаримова М. Ў.Xoшимov asarlarida миллий kadriyatlar talқini: Филол. fanlari номзоди... дис. – Т.: 2004. – 152 б.

⁵ Isoqulov A. Ibroym Юсупов шеърияти Ўzbek tilida.//«Fan va taъlim-tarbiyaning dolzarb masalalari» mavzusidagi Respublika ilmiy-naъariy anjuman materiallari. Нукус-2019 (ф.ф.н., доцент К.Ташанов билан ҳамкорликда); Isoqulov A. Ўtkir Xoшимov хажвиёти.//“Филология ҳам оны оқитиў taraўларындағы фундаменталь ҳам инновациялық изертлеўлер” mavzusidagi respublika ilmiy-naъariy anjuman materiallari. Нукус – 2019 (ф.ф.н., доцент К.Ташанов билан ҳамкорликда); Isoqulov A. O‘tkir Hoshimov hikoyalarida muammoning qo‘yilishi.//«Туркий халықлар фольклоры, әдебиеттаныў ҳам тил билиминиң әхмийетли мәселелери: улыўма уйғынлық ҳам миллий өзгешелик» mavzusidagi халқаро ilmiy-naъariy anjuman materiallari. Нукус-2019 (ф.ф.н., доцент К.Ташанов билан ҳамкорликда)

Tadqiqotning maqsadi: Ishda ko'zda tutilgan asosiy maqsad O'tkir Hoshimovning asarlarida mavzu, davr muammolarining aks etishi va ular keltirib chiqaradigan oqibatlari, milliy an'analar tasviri va uning obrazlar talqinida aks etishi va uni umumta'lim maktabdida o'qitish usullariga kengroq to'xtaldik. Bugungi texnologiyalar asrini inobatga olib metodlarimizni mavzular doirasida darslarni yangicha interfaol usullar rolini yuqori baholab, ulardan samarali foydalanish doirasida o'rganish va uning ilmiy-nazariy, metodik asoslarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi etib quyidagilarni belgiladik:

- O'.Hoshimov ijodida mavzu va obrazlar talqini masalasini o'rganish;
- Adib yaratgan badiiy asarlar va ilmiy-ommobop maqolalarini o'rganib chiqish;
- O'.Hoshimov asarlarida ko'tarilgan davr muammolarini xranologiyasini yaratish;
- Ijodkor asarlarida milliy an'analar, obrazlarda milliy xarakterning aks etish masalalarini o'rganish;
- Ta'lim tizmida O'tkir Hoshimov asarlarini o'rganish yuzasidan DTS, dastur va darsliklarni o'rganish;
- Adabiyot darslarida adib hayot yo'li va ijodini o'rgatish bo'yicha metod va usullarni tadqiq qilish, metodik tavsiyalar yaratish;
- Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi o'rganish;
- Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- 1 soatlik dars ishlanmasini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida O'tkir Hoshimovning "Tanlangan asarlar"⁶, "Tushda kechgan umrlar" romani⁷, ikki jildlik "Saylanma"⁸, shuningdek,

⁶ Хошимов Ў. Танланган асарлар. IV том. Роман, қисса, ҳикоялар, ҳажвиялар, таржималар, ўйлар. – Т: Шарқ, 2011

⁷ Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. Роман. Ғ.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.- Т: 2002

⁸ Хошимов Ў. Сайланма: 2 жилдлик. 1-ж.-Т.: Шарқ, 1998.

yozuvchi hayoti va ijodi, asarlari haqida turli matbuotlarda e'lon qilingan maqola va suhbatlar, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan asarlarini tanlandi.

Tadqiqot predmeti: Bitiruv-malakaviy ishining predmeti sifatida O'tkir Hoshimovning roman, qissa va hikoyalari, shuningdek, yozuvchi haqida yaratilgan, uning ijodiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, to'plamlar va risolalar, vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalar manbaviy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlaridagi istiqlool va ma'naviyatga oid nazariy fikrlar, "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, sharq mutafakkirlarining ma'naviyat, ma'rifat, komil inson to'g'risidagi ta'limotlari, mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalar bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotda O'.Hoshimov asarlari ilmiy-nazariy tahlil qilinib, ulardagi mavzu va obrazlar qiyoslandi.

Bitiruv malakaviy ishida manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, adabiy talqin metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Hozirgi globallashuv davrida yoshlarni har xil yot g'oyalardan himoya qilish uchun ularning ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashda va milliy o'zligimizni anglatishda ijodkor asarlaridagi "insoniylik konsepsiyasi"ni ishlab chiqish, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurrash, iymon-e'tiqod, turli insoniy tuyg'ularning qahramonlar psixologiyasiga ta'siri o'rganish va uni umumta'lim maktablarida kam kuch sarflab, ko'proq samaradorlikka erishish orqali asarni umummilliy g'oyalarini o'quvchi ongiga singdirishdan iborat usullari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbqiq qilindi. Shuningdek:

- O'.Hoshimov ijodida mavzu va obrazlar talqini masalasini o'rganildi;
- Adib yaratgan badiiy asarlar va ilmiy-ommobop maqolalarini o'rganib chiqildi;

- O‘.Hoshimov asarlarida ko‘tarilgan davr muammolarini xranologiyasi yaratildi;
- Ijodkor asarlarida milliy an‘analar, obrazlarda milliy xarakterning aks etish masalalarini o‘rganildi;
- Ta‘lim tizmida O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘rganish yuzasidan DTS, dastur va darsliklarni o‘rganildi;
- Adabiyot darslarida adib hayot yo‘li va ijodini o‘rgatish bo‘yicha metod va usullarni tadqiq qilish, metodik tavsiyalar yaratildi;
- Ta‘lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi o‘rganildi;
- Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;
- 1 soatlik dars ishlanmasini ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: bitiruv malakaviy ish natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shunda ko‘rinadiki, undagi xulosalar va bildirilgan fikr-mulohazalardan, keltirib o‘tilgan ko‘rsatma va uslubiy tavsiyalardan o‘rta ta‘lim maktablarida adabiyot fanlarida, adabiyot yo‘nalishiga ixtisoslashgan akademik litseylarda foydalanish mumkin. Bundan tashqari oliy o‘quv yurtlarida «O‘zbek adabiyoti» fanini o‘qitishda, bu fan bo‘yicha o‘tkaziladigan amaliyotda foydalanish mumkin.

Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan adabiyotshunoslikda, shuningdek, o‘zbek nasrining taraqqiyot xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek adabiyoti bo‘yicha maxsus kurslar va seminar mashg‘ulotlarini tashkil etishda ham manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi: Bitiruv malakaviy ishi Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilindi. Bitiruv malakaviy ishi natijalari bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar pedagogik amaliyot davrida joriy etildi.

Pedagogik amaliyot davrida Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani XTBga qarashli 69-umumta‘lim maktabining 5-6-10-sinflarida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Ishning tarkibiy tuzulishi: Bitiruv-malakaviy ishi uch bob, yetti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 74 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O‘TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA DAVR MUAMMOLARI VA UNING BADIY TALQINI

1.1. Yozuvchi va davr.

O‘tkir Hoshimov o‘zbek xalqining eng mashhur va sevimli yozuvchilaridan biridir. Adibning “Bahor qaytmaydi”, “Qalbinga quloq sol”, “Nur borki, soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikka karra ikki-besh” kabi ko‘plab qissa, hikoya, romanlari xalqimiz ko‘ngil mulkidan joy olgan asarlar.

Ularda davr muammolari aks etishi va ularning oqibatlari nihoyatda ishonarli tasvirlangan. Ayniqsa, ularning ichida mustaqillika erishganimizdan so‘ng yozilgan “Tushda kechgan umrlar” romani alohida o‘rin tutadi. Bu romada o‘tgan asarning 80-yillarida avj olgan “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” nomlari bilan xalqimizning ko‘zga ko‘ringa insonlarini markaz tomonidan “poraxo‘rlikka qarshi kurashish, unga barham berish” niqobi ostida, aslida “siyosiy tozalash” ishlaridan tortib, “afg‘on urushi” va uning xalq boshiga solgan misilsiz ko‘rguliklari, o‘zga yurtda qon to‘kib begunohdan begunoh shahid bo‘lgan yurt “Temurlari”, “Xayriddinlar”, urushda jarohat olib bir umrga farzand ko‘rish baxtidan mosuvo “Rustamlar” qismati, “ikkinchi jahon urushi” qiyinchiliklari, “Qatag‘on davri” sarsongarchiliklari va 80-yillarda avj olgan ayrim “illatlar” va ularning oqibatlari xalqimizning ko‘nglini o‘rtagan orzu-armonlarini aks ettirgan.

Roman kuchli dard bilan yozilgan bo‘lib, unda biz tafakkuri teranlashgan ijtimoiy dard-alamlari pishib yetilgan ijodkorni ko‘ramiz. Chunki ijodkor shu muhitni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, his qila olgan. Bu borada Tanqidchi A.Rasulov asar ruhi mundarijasiga quydagicha izohlaydi: *“Tushda kechgan umrlar”da O‘.Hoshimov insonlar xarakterini yoritishda o‘zini zinhor cheklamadi. Sho‘ro davridagiday, buni aks ettirish mumkin emas, insonni asosan, ijtimoiy mohiyatini yoritish kerak degan yozilmagan qonunlar tazyiqi endi yo‘q*”.⁹

Ijodkor bu asarda qahramonlarga ism tanlashda ham o‘ziga xos falsafiylik yo‘lidan boradi. Masalan: Butun umrini sho‘rolar davlatiga xizmat qilishga

⁹ Rasulov A. Ардоқли адиб. Тошкент: Шарқ, 2001 йил, 112-бет

bag'ishlagan, millat farzandlarini o'z qo'li bilan "yot unsur"ga aylantirgan, kezi kelganda o'z xotinidan, o'z bolasidan ham shubhalanuvchi, din millat tushunchasi begona Soat G'anievich vaqti kelib o'zi ham "keraksiz bir buyum"ga aylanib boradi. Xuddi yozuvchi bizga Soat "vaqt", G'anievich "g'animat", "har qancha zulm ham o'tkinchi bu dunyoda faqat yaxshilik qoladi" degandek bo'ladi.

Romanda Rustam, uning suyuqli xotini Shahnoza va Rustamning ota-onasini asosiy syujet chizig'iga yig'ish orqali real hayot manzaralari tasvirlanadi. Asar Rustamning o'lim voqeasi bilan boshlanadi. Voqealar rivoji davomida yozuvchi bosh qahramon o'limi tafsilotlarini aniqlash barobarida "rustamlar" fojeasiga sabab bo'lgan tuzumning mohiyatini ochib beradi. Inson bolasining tariqchalik qadr-qimmati yo'qligi, ularning taqdiri tuzum yaratgan komessarlar qo'lida hal bo'lishini mahorat bilan ko'rsatib beradi.

Rustam kabi mard yigitning avji yigitlik pallasida o'limni tanlab o'z joniga qasd qiloishi mantiqsizlikdek ko'rinadi. Lekin yaxshilab o'ylab qaralsa, bemaqsad afg'on urushi, uning minglab gunohsiz qurbonlari, "o'zbek ishi" bahonasida xalq boshga solingan qatag'onlar mantiqsiz. Rustam ana shu mantiqsizlik qurboni. Yozuvchining o'zi bu xususida shunday diydi: *"Sho'ro zamoni oxirlab qolgan kezlar edi. Bir tomonda bemaqsad Afg'on urushi boryapti. Ikkinchi yoqda "o'zbek ishi" bahonasida xalqimiz boshida qatag'on qilichi o'ynayapti. Bir kuni Afg'ondan, bir kuni mamlakat ichkarisidan askar yigitlarimizning "temir tobuti" kelib turibdi. Xuddi dahshatli tush kabi..."*¹⁰

Romanning nomi ham bejizga bunday tanlanmagan. Adib 70 yil davomida mudroq holatda bo'lgan, uyquda hayot kechirgan millatning ijtimoiy, ma'naviy holatiga ishora beradi. Asarda ko'p yillar kommunistik ahdiga sodiq yashagan Rustamning otasi tuhmat bilan qamalgandan so'ng, o'g'liga yozgan xatida aytadi:

"O'ylab qarasam o'tgan umrim– umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u tush ko'rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko'rib, o'sha "birov" qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib

¹⁰ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar:4-jild: Tushda kechgan umrlar: Roman, qissa, hajviyalar, hikoyalar, tarjimalar, o'ylar. – T.: Sharq, 2011 yil. 363-bet.

ketaverganman... uygʻonishga esa qoʻrqqanman... mana endi, uygʻonib, yonverimga qarasam, menga oʻxshaganlar koʻp ekan...”¹¹ Bu soʻzlar oʻzi yashab turgan tuzumning adolatsizliklarini koʻrgan, nohaq jabr tortgan raisnigina emas, roman persanajlarining barchasiga, ular timsolida esa minglab jabrdiydalarga ham tegishli. Ular bu qoʻrqinchli tushdan uygʻonib amin boʻladiki, ular ishongan gʻoyalar puch, bir umr eʼtiqod qoʻyganlari sarob boʻlib chidi. Adib bu tuzumni va unga ishongan odamlarning taqdiridagi mantiqsizlikni shu tarzda ochib beradi. Romanda insonlar taqdiri orqali mustabid tuzumning gʻayriinsoniy mohiyati ochib beriladi. Yozuvchining taʼkidlashicha: *“Tushda kechgan umrlar” romanidan bir qancha boblarni xorijda nashr etiladigan “Ikarus” jurnalida ingliz tilida eʼlon qilishayotganda “U nimasi bilan sizlarga yoqadi?” deb soʻradim. “Unda siyosat yoʻq, yaʼni bu - kommunist, bu -fashist, bu - qizil, bu - oq, bu - Doʻst, bu - dushman, degan gap yoʻq. Bu asarda urush, inson, oʻlim, degan uchlik bor», deb javob qilishdi noshirlar*¹². Darhaqiqat, urush va uning oddiy odamlarga keltirgan zararli oqibatlari haqida yozuvchi “afgʻon urushi” mavzusiga qoʻl urishdan oldin Afgʻon urushida qatnashgan yigitlar bilan uchrashadi. Lekin ha deganda romanni boshlashga qiynaladi. Bu orada betob boʻlib kasalxonaga tushib qoladi. Shunda muhim quyidagi voqea sodir boʻladi: *“Oʻshanda kech kuz - noyabr oyi edi. Balkonga chiqib, sigaret chekib tursam, roʻparadagi - yongʻoqmidi, chinormidi, hozir eslolmayman - daraxtdan bir yaproq uzilib, uchib-uchib kelib, oyogʻim ostiga tushdi. Bosgan edim, “qisir-qisir” etib maydalanib ketdi. Shunda boʻljak romanning birinchi jumlasini tugʻildi: “Kuz oʻlim toʻshagida yotgan bemorga oʻxshaydi, oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi”. Asarning musiqasi topildi! Shoshilinch bilan statsionardan chiqib ketib, “Tushda kechgan umrlar” romanini oʻttiz kunda yozdim. Agar oʻqigan boʻlsangiz, u boshdan oxirigacha hazin bir*

¹¹ Hoshimov Oʻ. Tanlangan asarlar:4-jild: Tushda kechgan umrlar: Roman, qissa, hajviyalar, hikoyalar, tarjimalar, oʻylar. – T.: Sharq, 2011 yil.

¹² Oʻtkir Hoshimov: "Bu daraxtning nomi edi Yaxshilik, «Markaziy Osiyo madaniyati» gazetasining bosh muharriri bilan suhbat.ziyouz.com

*musiqaga o'xshaydi. Rustamning qismati ham ma'yus musiqa, Shahnozaning qismati ham, urushda halok bo'lgan Xayriddinning qismati ham ma'yus musiqa"*¹³.

Shu tariqa adibning romani dunyo yuzini ko'rdi. Romanda bir lavha bor. Rustam tankda ketayotib, o'liklarni mashinaga ortayotgan askarlarni ko'rib qoladi-da, to'xtaydi. Tushib qarasa, uning eng yaqin do'sti, Temurning o'ligini ham ortishayotgan bo'ladi. Temurning afti shu darajada majahlanib ketgan ediki, Rustam uni qo'lidagi tatirovkadan tanidi. (Afg'on urushida yaralanib qo'lga tushgan askarlarni quloq-burnini, turli xil a'zolarini kesib olish holatlari bo'lgan.) Buni ko'rgan Rustam o'zini bilmay qoladi, "qutirib" ketadi... U bir hovliga tank bilan bostirib kiradi. Hamma yoq chang-to'zon. Tankdan tushadi. Birpastdan so'ng ishqom tagidagi qizil ko'ylakka ko'zi tushadi. Beixtiyor yaqin boradi. Qarasa, ko'ylak emas yiqilib yotgan ayol ekan. Rustam uning ustiga egiladi. "Qo'rqmang, opa, biz sizga tegmaymiz", deb yelkasidan turtsa, ayol yonboshiga ag'dariladi. Bu go'zal ayolning o'q teshgan bo'ynidan oqqan qon yarim yalang'och ko'ksiga tushadi. Shu payt vayrona kulbadan bir yarim ikki yoshlar chamasidagi ishtonchang bola chiqib, etak-tetak qadam bosib, ayolning boshiga keladi. "Mo'rjona" "mo'rjona", ("mo'rjona",-ona degani) deb, uni ema boshlaydi. So'ng bosh ko'taradi-da, chirillab yig'lab yuboradi. Bolaning og'zidan sut emas qon oqardi! Yozuvchi siz-u bizga ko'rsatib bermoqchi bo'lgan urushning noinsoniy qiyofasi xuddi shunday edi. Bunday fojiaga dosh berolmagan Rustam "Otaman! Hammangni otaman! O'zimniyam otaman!" deb hayqiradi va hushidan ketib, kontuziya bo'lib qoladi. Uning ruhiy holatidagi o'zgarishda nafaqat yarador bo'lishining, balki ana shu manzaralarning ham "hissa"si bordir.

Balki Rustam o'sha ayolni otmagandir, boshqa bir avtomatdan otilgan o'q tekkandir unga. Lekin o'lib yotgan ayolning gunohi nima? Urushga borib ota bo'lish baxtidan mosuvo bo'lib kelgan Rustamning gunohi nima? Urushda qornidan xanjar yeb o'lgan Xayriddinning gunohi nima? Odam tanimas holga tushirilgan Temurning gunohi nima? Sut o'rniga onasining ko'ksidan qon emgan

¹³ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar:4-jild: Tushda kechgan umrlar: Roman, qissa, hajviyalar, hikoyalar, tarjimalar, o'ylar. – T.: Sharq, 2011 yil. 363-bet.

bolaning gunohi nima?... Roman boshdan-oyoq mana shu savollarga javob izlaydi, kitobxonni larzaga keltiradi.

Bizningcha, asarning kuchi, yozuvchining mahorati ham shunda bo'lsa kerak. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov "San'atkor va hayot" nomli tadqiqotida: *"Shunday asarlar borki, hayotiy voqeligi, g'oyaviy mohiyati jihatidan bir – biriga o'xshash, ammo shu voqealar talqinida va g'oyaviy maqsadlarni poetik tahlilida har bir adib o'z betakror estetik yo'lidan boradi"*. – deya yozadi.

O'tkir Hoshimov ham o'ziga xos uslubni namoyish etadi. Yozuvchi "Tushda kechgan umrlar" romanidagi har bir vaziyatni, tasvirni maromiga yetkazib, sirli-joziba tarzda tasvirlaydi. Tasvir ruhiyati rang-barangligi har bir muammo va ziddiyatlarni yaxlit gavdalantirish imkonini beradi: *"Akam allaqancha gazeta yig'ib qo'ygan ekan. O'qib, hayron bo'ldim. Birida butun mamlakatni qamoqxonalarga aylantirgan rejim yemirilgani, to'la demokratiya ro'yobga chiqayotgani yoziladi, boshqasida "o'zbek ishi" bo'yicha qamoqqa olingan obkomlar, raykomlar, raislar la'natlanadi. Birida odamlarni e'tiqodi uchun tazyiq ostiga olinganlar qoralanadi, vijdon erkiga yo'l ochilgani aytiladi, boshqasida otasini dafn etish uchun mozorga borib, Qur'on tilovat qilgan kommunist fe'leton qilinadi... Qiziq"*¹⁴. Rustamning kundaliklaridan olingan bu lavhada u afg'on iztiroblaridan tashqari harbiydan keyingi hayoti ham ziddiyatlarga boy bo'lgan davr hisoblanadi. Uning tasavvurida hayot o'zgargan, jamiyat adolat sari qadam tashlagandek tuyilsa-da, ammo bu tushunchalar faqat uning tasavvuri mahsuli edi, xolos. Chunki ota shu tuzumning qurboniga aylangan, uni adolatsizlik o'z qariga tortib ketganligini to'liq anglab yetmagan edi. Otasi Shomansur Shomatov hayoti davomida haq va haqsizlikka qarshi kurrashgan shaxs bo'lsada, ammo amaldagi ijtimoiy muhit qurboniga aylangan edi.

Shuningdek, romanda Qurbonoy xola obrazi asar syujetida muhim badiiy ahamiyatga ega. U oddiygina farrosh bo'lsa-da, o'z oilasini halol mehnat bilan topgan mehnati hisobiga tebratar, ba'zan esa mashaqqatli hayot qurboniga

¹⁴ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar:4-jild: Tushda kechgan umrlar: Roman, qissa, hajviyalar, hikoyalar, tarjimalar, o'ylar. – T.: Sharq, 2011 yil

aylanganini o‘zi ham sezar edi. Ismi jismiga monand obrazda o‘zbek ayoliga xos xususiyatlar mujassam. Bu obraz hech tanimagan bilmagan bir inson uchun o‘zbek ayolini ko‘ngil kechinmalarini aniq ko‘rsatib beradi.

Asarda realistik tamoyil ustuvorligi shundaki, yozuvchi hodisani poetik idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki unda ijodiy yondashuv va estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Joriy munosabat tasviri shiddat uyg‘unligini ta’minlash barobarida xarakter to‘laonligini ham mantiqan dalillaydi. Voqelikda keskinlik yoki ifoda to‘qnashuvi badiiy maqsadni aniqlashtirilgan omil, boshqa asarlarida bo‘lgani kabi unda muhokama tabiatini anglash, tadqiq qilish asar sahnasiga chiqadi. Masalan: *“Xosiyatsiz tush ko‘rdim. Otam hovlidagi so‘rida yotganmish. Tagida ko‘rpacha ham yo‘q, quruq taxta ustida yotibdi (qamoqxonalaridagi kabi-A.I.). Dada ko‘rpacha solib beray desam, indamaydi. Nuqul yig‘laydi. Dadamning yig‘lashini hech ko‘rgan emasdim. Qo‘rqib ketibman. Yoniga yugurib borsam, dadam g‘oyib bo‘lib qopti”*¹⁵. Roman tabiatida san’atkor shaxsiyati butunligiga doir xususiyatlar jamlangan. Yaxlit tizim sifatida voqelik shakli va mazmunini bir-biriga ulaydigan badiiy tushunchada daraja ko‘rsatgichi qabarib ko‘rinadi. Aynan, tasvir va ifodani bir muayyan estetik markazga yig‘ish adabiy mahoratga chambarchas bog‘liq. Aslida hayotiy material ko‘p qirrali va mavhim ijodiy tanlov pozitivlikni esa tahlil belgilaydi. Mantiq hamda munosabat zichligi badiiy me’yor saqlanishi kafolati, unda real voqelik dalolati qayta ishlanib, poetik tadqiqot ustuvorlashadi.

1.2. Insoniy his-tuyg‘ular kashfiyotchisi (“Ikki eshik orasi” romani misolida).

“Ikki eshik orasi”- O‘tkir Hoshimov asarlari ichida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yirik ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy masalalarni ko‘tarib chiqqan roman. Asar uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab kishilar taqdirini, hayot yo‘lini, xilma-xil ijtimoiy-axloqiy muamolarni o‘z ichiga qamrab oladi. Roman voqealarnining bir uchi o‘tgan asrning 30-yillarining boshlariga ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga

¹⁵ Hoshimov.O‘. Saylanma. Ikki jildlik.2-jild. Hadikli tushlar.-T: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.2002. 209-bet

kelib taqaladi. Shunday bo'lsa-da, romanning markazida fashizmga qarshi olib borilgan urush davri, urush yillaridagi o'zbek qishloqlari hayoti, urush va inson, urushning kishilar hayotiga chuqur ta'siri, ular qismatida, farzandlar qismatida, dilida qoldirgan jarohatlar muammosi turadi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi kishilarimiz uchun zo'r sinov bo'lgani, bu sinov paytida o'zbek kishisiga xos bo'lgan noyob fazilatlar favqulotda bir kuch bilan yuzaga chiqqani, yurt kishilaridagi otashin vatanparvarlik, cheksiz muruvvat, sadoqat tuyg'ularini ilhom va ehtiros bilan qalamga oladi. O'sha sinov kezlarida faqat o'z jonini, manfaatini o'ylab, munofiqlik, xiyonat ko'chasiga kirgan ayrim kimsalar qilmishlarini qahrg'azab bilan qoralaydi, ma'naviy inqirozini, fojeasini ochib beradi. Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma'nosi, insonning insoniylik shani, burchi, mas'uliyati, e'tiqodi masalalarini ko'taradi. O'quvchini ular haqida o'ylashga, bahsga chorlaydi. Insonni qanday yashash va yashamaslik kerak,-degan savolni asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko'taradi. Bu kabi o'y-fikrlar asar qahramoni - Orif oqsoqol tilidan quyidagicha ifodalaydi: *"Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganida qo'lidan kelgancha savob ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g'isht qo'yib ketadi. Yana bir xillari bor: o'sha imoratdan aqalli bitta g'isht o'g'irlab ketgisi keladi. O'g'irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshik oldiga borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi..."*¹⁶

Yozuvchi uzoq davrlik voqealarni, ko'plab insoniy taqdirnlarni bosh qahramonning bir necha soatlik kechinmalari ichiga joylaydi. Asarda shu narsa xarakterliki, muallif voqealarga bevosita aralashmaydi, muxtasargina so'z boshidan keyin u bevosita ko'rinmaydi, so'z, ixtiyor butunasiga qahramonlarning o'zlariga beriladi. Qahramonlar esa o'z boshlaridan o'tganlarini o'zlari so'zlashga kirishadilar.

Asarda o'nlab katta-kichik personajlar mavjud. Qimirlagan jon borki, deyarli barchasi davr dard-tashvishi bilan nafas oladi. Bir-ikki epizodda ko'rinish beradigan raykom kotibi Abdurahmonov, muallim Samadov, Rashid abzi, Vasya

¹⁶ Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: "Sharq", 2012.

amaki, Parcha opa, Zuhra kelin kabi personajlardan tortib, asarning markaziy personaji Muzaffarga qadar – hammasi murakkab, chigal, mushkul taqdir egalari. Yozuvchi yetakchi qahramonlar, xususan, Muzaffar, uning tuqqan onasi Ra'no, boqqan onasi Robiya, otasi Shomurod, o'gay otasi Umar zakunchi, sevgilisi Munavvar, "Qora amma", xususan, Orif oqsoqol, Bashoratxon, Komil tabib obrazlarini, ularning qalb dunyosini keng va har tomonlama ochadi.

Asarga muallif to'xtalar ekan, asar qahramonlariga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: *"Rost bilan yolg'onning o'rtasi - to'rt enlik", degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi - to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon... Maqsad - shu. Bu kitobdagi ko'p odamlami o'zim ko'rganman. Ko'plari bilan gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining... ruhi bilan... Ba'zilar nimani gapirgan bo'lsa, shuni qog'oz-ga tushirdim. Ba'zilar nima gapirganini emas, nima o'ylaganini yozishga majbur bo'ldim. (Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg'on gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini o'ylaydi.) Xullas, bu savdolar ko'p yillar davomida ko'p kishilarning boshidan kechgan. Ular ustidan hukm chiqarish - sizlarga havola...Tilimning uchida turgan yana bir andishani aytmasam bo'lmaydi.*

*Ehtimol, siz bu kitobda foje ko'payibroq ketmadimikin, degan xayolga borarsiz. Nachora, avvalo hayot - nuqul bayramdan iborat emas. Urush esa o'yin emas. Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma millioni bizning odamlar edi. Eng aziz, eng asl kishilarimiz. Qolaversa, urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o'tkazdi. Mushkul damlarda imonini, insonligini saqlab qolgan ota-onalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o'rnak bo'lsa ne ajab!"*¹⁷

Bundan ko'rinib turibdiki, asar qahramonlari bizga begona emas. Bizning ichimizdagi, siz-u bizga tanish kishilar, ular ko'tarib yurgan muammolar ham ular o'ylagan o'y-xayollar ham begona emas. Hatto o'tgan asarning 70- yillaridagi

¹⁷ Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: "Sharq", 2012

dolzarb muammo bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asar qahramoni Muzaffar ishlaydigan qurilish tashkilotida shunday hodisa yuz beradi: *“...Nima dey? Nima qilay? Zina maydonchasining paneli loyihadagidan roppa-rosa bir qarich kalta bo‘lsa, qandoq montaj qilamiz? Mayli, armaturalami uchma-uch qilib ulasayam bo‘ladi. Lekin “A –1”ingichka armatura... Qoraqamish dahasidagi bitta uyning zinalari o‘zidan-o‘zi bosib tushdi. Yer qimirlamadi, hech kim eshigidan chiqib zinapoyada sakramadi. Bir tonnalik beton plita shunchaki o‘z og‘irligini ko‘tarolmay chokidan uzilib ketdi, bir emas, uch qavatni bosib qoldi. Yaxshiyamki, kechasi bo‘lgan. Agar shu falokat ertalab, maktab bolasi o‘qishga ketayotganida yoki kechqurun odamlar ishdan qaytayotganida ro‘y bersa...”*¹⁸

Ko‘rinib turibdiki, ayrim odamlar xafsizligini o‘rniga o‘zining cho‘ntagini, mansabini, “kirislo”sini, allaqanday “qizil bayroq”larni ustun qo‘yadigan “Shavkat Qudrativich”dek kimsalar hozirgi hayotimizda ham ko‘plab uchrab turishi kishini o‘ylantiradi. Masalan, Jizzax viloyatidagi hali bitib ulgurmagan 4 qavatli binoning buzilib tushishi yoki Buxoro viloyatidagi hali aholi ko‘chib o‘tmagan binoda gaz sizib chiqishi natijasidagi portlash voqealari. Bularning hammasi asardagi “Shavkat Qudrativich” va shunga o‘xshash amaldorlar qurilish tashkiloti mansabdorlari tomonidan quriladigan “sifatsiz” inshootlar haqida yozuvchi bizni ogohlantirgandek bo‘ladi.

Bu yerda Muzaffar singari halol, vijdonli kishilar esa “pand yeb” ishdan chetlab qolishi haqqoniy tasvirlangan. Yoki butun umrini zahmatli mehnat bilan o‘tkazib, beton, changda ishlab issiqni issiq demay, sovuqni sovuq demay mehnat qilgan kishilarning qadrsizlanishi ham juda ta’sirli tasvirlagan. Axir, ularning ham o‘ziga yarasha orzu- umidlari rejalashtirgan hayot tashvishlari, quvonchlari bor edi-ku!. Bu tasvirlar quruvchi Safar aka tilidan quyidagicha bayon qilinadi: *“Oltita bolam yeyman, ichaman deb turibdi. To‘rttasi maktabga boradi. Onangni emguri bolalariga bittadan papka oberishgayam yetmaydi-ku, bu qizitaloq! - u jahl bilan kissasiga shapatiladi. - U yog‘ini so‘rasang, kichik qayinsinglim boshqa vaqt qurib qolgandek tug‘ib berdi yaqinda! Uni beshik to‘yisiyam meni gardanimda!*

¹⁸ Hoshimov O‘tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: “Sharq”, 2012

Qaysi biriga yetkazay!”¹⁹ Bu tasvir orqali Safar aka va shu kabi oddiy insonlarni yashash sharoiti beixtiyor ko‘z oldimizda gavdalanadi. Kamgina oylik hech bo‘lmaganda ro‘zg‘origa yetmasa, o‘z ishidan olgan moyanasidan minnador bo‘lmagan quruvchi bo‘lsin xoh boshqa kasb egasi bo‘lsin undan qanday yaxshi imoratlarni kutib qolishimiz mumkin. Ko‘rayapsizmi asl muammo nimada?

Bu romanda muallif ana shunday og‘riqli nuqtalarni qalamga oladi. Shuning uchun ham kitobxon bu voqealarga shunchaki ko‘z yumib ketolmaydi. Asar persanajlari o‘y fikrlaridan uzoqlasha olmaydi, ularning bir biriga ko‘rsatgan mehr-oqibatlari kishini hayratga soladi. 30-yillar ayni qiyinchilik, ocharchilik davrida odamlar bir burda nonga zor bo‘lgan paytlarda bir bechora muallimning joniga ora kirgan Orif oqsoqoldek insonlar oramizda borligidan faxr hisini tuyamiz. Asar qahramoni Robiya tilidan berilgan parchada shu narsaga guvoh bo‘lamiz: *“...Nonimni birpasda yeb bo‘ldim. Qarasam, dadam hali yarmisiniyam yemabdi. Har luqma tomog‘iga tiqilib qolayotgandek zo‘rg‘a yutinadi.*

- Non! - dedim qo‘limni cho‘zib. - Dadajon...

Dadam qo‘ldagi nonning qolganini uzatdi. Cholni qarab turganini ko‘rib, non burdasini qo‘rqa-pisa qo‘limga oldim.

- Mayli! - Cholning soqoli titrab ketdi. – Nasib etsa, hammasi yaxshi bo‘ladi. Qani, ma’lim, ketdikmi? Turaqol, qizim! - U tagimdagi chamadonni yulqib ko‘tardi... Dadam aravaga o‘tirib, meni bag‘riga olarkan, cholga qaradi.

- Yo‘l olismi, Oqsoqol?

- Olis... No‘g‘ayqo‘rg‘onga boramiz!

- Soat necha bo‘ldi? - dedi dadam quyosh botib borayotgan ufqqa qarab.

- Soat? - Chol dadamga bir qarab qo‘ydi-da, arava ichida yotgan qamchini oldi.

- Soatni boshingga urasanmi! Qarasam, cholning ko‘krak cho‘ntagida boyagi yaltirab turgan soat zanjiri ko‘rinmayapti... ”²⁰ Ma’lumki, O‘tkir Hoshimov ilk romani “Nur borki, soya bor”da hayotning dolzarb muammolarini ko‘rsatishga

¹⁹ Hoshimov O‘tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: “Sharq”, 2012. 10b

²⁰ Hoshimov O‘tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: “Sharq”, 2012. 50b

moyillik kuchli, shunga ko‘ra uni shartli ravishda “muammoli roman” deb atash mumkin; “Ikki eshik orasi”da esa odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun, shuning uchun ham bizning firimizcha “taqdirlar romani” desa bo‘ladi. Yuqorida berilgan tasvirda muallim va uning qizi Robiyani taqdirning o‘zi Samarqanddan Toshkentga olib keldi, yaxshi insonlar Orif oqsoqol, Husan duma, Qora amma bilan uchrashtirdi. Bir qaraganda hammasi iziga tushib borardi. Oradan uch yil o‘tgandan so‘ng Orif oqsoqol aytganidek “san je, man je” zamonlar ham keldi, maktab ham qurildi. Lekin bu quvonchlar uzoqqa cho‘zilmada tez orada yangi balo bosh ko‘tardi Bu balo “qatag‘on” balosi edi:

“ - Dada, - dedim titrab. - Qayoqqa ketyapsiz?

Dadam rangi quv o‘chgancha muzdek labi bilan peshonamdan o‘pdi.

- Qo‘rqma, qizim, ertaga kelaman, - dedi-yu, bobomga yuzlandi. – Tushunmovchilik bo‘lganga o‘xshaydi, Husan aka. - Keyin negadir oyimga iltijoli termildi. - Mabodo bir oy, yarim oy kelmay qolsam, Robiyani sizga topshirdim. Onalik qilasiz.

- Voy o‘lmasam, ma‘lim! - Oyim titrab meni quchoqlab oldi. - Nimaga unaqa deysiz?

Dadam hovliga tushgan joyida qaytib ayyonga chiqdi. Ikki yuzimdan qattiq o‘pdi-da, sakrab pastga tushdi. Qaddini g‘oz tutib eshik tomonga yo‘naldi. Darvoza tomonda gurillagan mashina ovozi eshitilgandan keyingina hushim o‘zimga keldi. Oyimning quchog‘idan chiqdim-u chinqirgancha hovliga otildim.

- Dada! Dadajon!”²¹

Bu qatog‘on shamoli qanchalab oilalarni yostig‘ini quritgan, qanchalab oilalar otasiz, onasiz ulg‘ayishiga majbur bo‘lgan. Ana shunday oilalardan biri muallim Samadov oilasi edi. Onasi o‘lgan bechora qiz endi otasidan ham ayirilgandi. Shavqatsiz dunyoda yolg‘iz o‘zi qolgandi. Shunda haqiqiy o‘zbeklarga xos bo‘lgan xislatni guvohi bo‘lishimiz mumkin. Husan aka va Qora amma yosh Robiyani o‘z tarbiyasiga oldi, mehr ko‘rsatdi, boshini siladi. Bu tasvirlarda muallif qatag‘on siyosatini naqadar jirkanch tomonlarini ko‘rsatib berish bilan birgalikda,

²¹ Hoshimov O‘tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: “Sharq”, 2012. 60b

o'zbek oilalarini favqulotda naqadar mehribonligini ham ko'rsatib bergan. Qatag'on siyosatini esa naqadar jirkanch, arzimagan bahonalar evaziga amalga oshirilganini quyidagi tasvirda ko'rishimiz mumkin:

*“- Dedim! - Oqsoqol buvaning mo'ylabi titrab ketgandek bo'ldi. - Aybi shumishki, darsni programma bo'yicha o'tmasmish. Hisob ilmini Xorazmiy yaratgan, deb maqtaganmish. Bolalarga Bobur poshshoning she'rlarini o'qitganmish. - U qovog'ini solib xo'rsindi. - Rayondan beruxsat maktab qurganmish...”*²²

Yuqoridagi tasvirdan ko'rinib turibdiki, muallim Samadov aslida ‘xalq dushmani’ balki, o'quvchilarni savodli bo'lishini xohlagan, asl haqiqatni o'qitgan fidoiy o'qituvchi bir so'z bilan aytganda “zamon qahramoni”. Lekin ko'r-ko'rona siyosat olib boruvchi, xalqni ilimli, marifatli bo'lishini xohlamagan “tuzum siyosatdonlari” Samadov muallim singari yurt fidoilarini ana shunday tuhmatlar bilan yo'q qilingan. Bunday yurt ishlaridan yana qanchasini “yostig'ini qurutgan”iga faqatgina tarix guvoh. Shu bilan birga Orif oqsoqol kabi xalq manfaatini har narsadan ustun qo'yadigan, xalq uchun yelib-yuguradigan insonlar o'rnigan “Umar zakunchi” kabi kaltabin, o'ziga bino qo'ygan, sotqin kimsalarni xalq boshiga rahbar bo'lishi tabiiy holdek ko'rinadi. Shunda ham Orif oqsoqol, Husan дума, Qora amma, Komil tabib kabi persanajlar o'ziga xos bosiqlik bilan mehnat qilishni davom etiraveradi. Xalq endi o'zini o'nглаb kelayotganda esa yana bir yangi balo bosh ko'taradi. Bu ikkinchi jahon urushi edi.

“- Urush boshlanibdi! - dedi bobom siniq ohangda - Yurtimizga nemis bostirib kiribdi. Hiqillab yiglayotgan oyim to'satdan ovozini baralla qo'yib yubordi. - Voy sho're-em! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho'rginam qursin! - Sannama-ye! - bobom o'shqirib berdi. - O'chir!

*Hayron bo'lib oyimga qaradim. Nega yig'laydi? Urush boshlansa nima bo'пти? O'zi anchadan buyon “urush-urush” degan gaplar yurardi-ku!”*²³

O'tkir Hoshimovning xotirlashicha onasi Hakima aya urush boshlanganda o'ris ayollarning dod-faryod chekayotganini ko'rib, muncha kuyunishmasa axir

²² Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: “Sharq”, 2012. 62-b

²³ Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: “Sharq”, 2012. 100-b

urush uzoqlarda bo'layabdi-ku, deb o'ylaganini keyinchalik odamlarni urushga olib keta boshlagandan so'ng urushni haqiqiy fojiasini his qilganini aytib bergan ekanlar. Yuqoridagi tasvir bilan tanishgan ayrim adabiy tanqidchilar hatto urush boshlanishi juda sodda tasvirlangan deb tanqid qilgan ham ekanlar. Lekin O'tkir Hoshimov uchun balandparvoz tasvirlardan ko'ra onasi aytib bergan holat ko'ngliga yaqin olgani va tabiiy ko'ringani uchun shu tasvirni o'zgarishsiz qoldirgan ekan. Bu to'g'ri qaror o'zini oqlaganini bugungi kitobxon yaxshi his qilib turibdi.

Urushlarda shavqatsizliklar ko'p bo'lganiga jonli tarixni o'zi guvoh begunohdan-beginoh odamlarning o'lishi ular ichida qariyalar, ayollar hatto bolalarning bo'lishi, olovlarida jizg'anak bo'lgan murg'ak go'daklar... Urushning vaxshiyliklarini Kimsan tilidan yozuvchi quydagicha ifodalaydi:

“Shu payt lovullab yonayotgan uy derazasidan birov sakrab ko'chaga tushdi. Qorda ganderaklab ketdi, ainino yiqilmadi. Besh-olti qadam yugurib bordi-yu, o'zidan o'zi gugurt cho'pidek lop etib yona boshladi. Kiyimiga benzin tekkan ekan shekilli... U vahima ichida quloqchinini qorga uloqtirib, ikki qo'llab boshini latalashga tushdi. Ammo og'riqdan esini yo'qotib kuchi boricha yugura ketdi. Qancha tez chopsa, shuncha qattiq yonar, goh yuziga, goh boshiga shapatilab chinqirar edi.

- A-a-a-a!

Ketidan yugurdim. Yaqin borganimda uning a'zoyi badani alangaga aylanib ketgan edi. Besh-olti qadam qolganida ganderaklab qorga yiqildi. Ustiga o'zimni tashlab, qorda dimalata boshladim. Dimog'imga kuygan go'sht isi urilili: odam go'shtining hidi. Oxiri qo'llarim kuya-kuya tirik gulxanni qorga bosib o'chirdim. Qishloq hamon lovullab yonardi. Razm solib qarasam, jajjigina bola ekan. Uzog'i bilan yetti-sakkiz yoshlarda, egniga qo'pol paxtalik kiyib olgani uchun ko'zimga katta odamdek ko'ringan ekan. Egnidan tutab turgan paxtaligini yechib olmoqchi edim, eplolmadim, allaqachon qorakuyaga aylanib badaniga yopishib qolibdi. Bolaning yuzidan silasam, barmog'imga yumshoq, issiq narsa unnadi. Jonholatda qo'limni tortdim. Ammo barmoqlarimga rezinkadek narsa yopishib qolgan edi.

Qo'limni tortgan sayin bolaning yuzi cho'zilib ketyapti. Vahima ichida qo'limni siltab ajratib oldim. Cho'nqayib o'tirgancha bolaga termildim. Lovullab yonayotgan uylar gulxanida bolakayning azobdan qiyshayib ketgan chehrasi aniq ko'rinardi. Ikki yuzi, qosh-kipriklari kuyib, qorayib ketgan, ko'zlari vahima bilan bir nuqtaga baqrayib qotib qolgan, faqat lablari, jajji lablari yarim ochiq; hamon "a-a-a" deb chinqirayotganga o'xshar, kemshik tishlari orasidan g'archcha tishlab olgan tilining uchi chiqib turardi..."²⁴ Urush olovida jizg'anak bo'lgan bu bola urushda halok bo'lgan minglab yoki yuz minglab norasiyda go'daklarning bir siymosi. Shuning o'zi ham kishida urushga nafrat, qahr-g'azab uyg'otadi. Bu urush davrida, frontdagi holat. Bu urush nafaqat firontdagi insonlar, balki front ortidagi kelajakda tug'ilgan insonlar taqdiriga ham bevosita ta'sir qilishini yozuvchi mana shu romanda isbotlab beradi.

Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh konsepsiyadan, ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko'radi. Umar zakunchi obrazini va boshqa ayrim personajlarni mustasno etganda, qolgan barcha qahramonlar qandaydir urush jafosini chekkan urush odamlaridir. Muzaffar urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylanadi, ko'p jabr-sitamlarni boshdan kechiradi va pirovardida uning sevgi fojiasi ham urush keltirgan chigalliklarga borib taqaladi. Sevgilisi Munavvar urush qoldirgan ma'naviy jarohatlar qurboni bo'ladi. Tuqqan onasi Ra'no urush to'zonlari ichra dovdorab, yo'ldan toyib hayot so'qmoqlariga kiradi; boqqan onasi Robiya ko'ngil bergan yigitidan judo bo'lib tutingan tog'aga xotin, Muzaffarga esa o'gay ona bo'lib qoladi. "Qora amma" o'g'lining sevgilisini o'z inisiga unash-tirishga, ikki o'g'lidani judo bo'lgan Oqsoqol esa o'z kelinini boshqa birovning nikohiga o'tkazishga majbur bo'ladi.

Roman muallifi ko'p o'rinlarda qahramonlarning g'oyat keskin, murakkab, chigal, mushkul daqiqalardagi ruhiy holatlarni mahorat bilan ifoda etadi. Ayniqsa, Oqsoqol olomon oldida kelinini ko'ngil qo'ygan nogiron yigitga nikohlab berish

²⁴ Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: "Sharq", 2012. 221b

lavhasi, o'sha murakkab lahzalardagi Oqsoqolning g'oyat tig'iz, ruhiy holati; Komil tabibning Robiyaga jangda halok bo'lgan o'g'li ko'ngil rozini izhor etishdagi dramatik kechinmalari, jangda yarador bo'lib qaytgan Shomurodning sevikli go'zal xotini xiyonatidan voqif bo'lgan kezlardagi iztiroblari, Ra'nodagi ikkilanish holatlari, so'ng aldanib chekkan alam va pushaymonlari, adadsiz qalb qiynoqlari – bunga o'xshash lavhalar tasviri kitobxonni larzaga soladi.

Adabiyotshunos olim Umarali Normatov asar qahramonlari xatti-harakatiga quydagicha ta'rif berib o'tadi: *“Asar muallifi qahramonlarning ruhiy dramasini ochish bilan barobar ularning qalb boyligi va sahovatini ham ko'rsatadi. Bir talay personajlar tabiati va xatti-harakatidagi mehnatkash xalqimiz xarakteriga xos fazilatlar, o'zbek xalqi turmush tarzi yorqin ifodasini topgan. Xususan, Husan дума, Oqsoqol, Komil tabib obrazlari, ularning oilasidagi tartibotlar o'zbek turmush tarzining ko'p yaxshi an'analarini ko'z-ko'z qilib turadi. Bu uch shaxs go'yo mehnatkash xalq hayoti, xarakterining uchta muhim qirrasini ifodalaydi: Orif oqsoqol – rahbar xodim, Husan дума – tadbirkor, ishbilarmon dehqon, Komil tabib xalq ziyolisi, Orif oqsoqol mehnatkash xalq orasidan chiqqan, butun hayotini shu mehnatkash xalq manfaatlari yo'liga tikkan, kecha-yu kunduz shu mehnat ahli tashvishi bilan nafas oluvchi, bir oz dag'al, shang'i ko'rinsa-da nihoyatda yoqimtoy chol. Unda ajib bir joziba bor. Qishloq ahli uni nihoyatda hurmat qiladi, hamma unga talpinadi, uning har bir so'zi el uchun qonun; yo'q, buyruq emas qonun! Mehnat ahli oqsoqolning so'zini, ishini o'z so'zi, o'z ishi deb biladi. Chunki, oqsoqol hech qachon elni aldamagan, faqat uning g'amini yegan, manfaatini degan. Shunisi muhimki, Oqsoqol vaziyat taqozosi bilan mansabdan – raislikdan chetlatilganda ham bir daqiqa bo'lsin, el-yurtdan uzoqlashmaydi, mansabdan ketgani uchun aslo o'kinmaydi, qishloq ahli esa hamon uni o'zlarining ma'naviy rahnamosi deb biladi. Bu odam oilasidagi og'ir ko'rguliklar yuz berganda boshga tushgan musibatlar tufayli dil-dilidan o'rtangani holda, baribir o'zgalar baxti, oromini o'ylab ish ko'radi”*²⁵.

²⁵ Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. -T., “Universitet”, 2007. 161-162-betlar.

Bu asarda Komil tabib ham xuddi Oqsoqol va Duma kabi urush jafosini chekkan shaxs, u ham dilda alam-iztiroblari bilan o'zgalar dardi, jarohatiga chora qidiradi, uning shifobaxsh qo'li ko'plarning og'rig'iga malham bo'ladi.

Urushda bedarak ketgan yolg'iz farzandi dog'ida o'rtansa-da, o'z dardini ichiga yutib, nuqul o'zgalar g'ami, oromi, baxtini o'ylaydigan "Qora amma", o'sha og'ir yillarda traktor minib, yoshlarni o'z yoniga olib, el-yurt mushkulotini oson qilgan, urush qurboni bo'lgan eri salomatligi, ko'ngli deb o'z oromidan voz kechgan Bashoratxon, ipakday mayin-muloyim, o'zgalarga mehribon qo'li gul chevar, dono ayol qo'qonlik Oysara opa – bu xil fidoyi onajonlar romanga zeb berib turibdi.

Yozuvchining mahorati san'ati faqat jonli, hayotiy milliy xarakterlar yaratish, qahramonlar tabiatiga xos insoniy fazilatlarni, dilidagi tashvish, tug'yonlarni mohirona ifoda etishdagina emas, xarakterlar ruhiyatidagi o'ta nozik, tushunish, tushuntirish mushkul bo'lgan murakkab kechinmalar silsilasi tasvirida ham namoyon bo'ladi. Birgina misol: Muzaffar oradan o'n yil o'tsa-da, halok bo'lgan sevgilisi Munavvar yodi bilan tanho yashaydi, yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, uylanmay, boshqa birovga ko'ngil qo'yolmay qariyalarni xunob qiladi. Onasining o'limi xabarini eshitganda iztirob chekadi, ta'ziasiga o'tlanadi, ammo onasi xonadoniga yaqinlashganda o'lim xabari tufayli dastlab ko'nglida uyg'ongan farzandlik mehri so'nib, ortga qaytishni o'ylab qoladi.

Xo'sh, nima uchun? Muzaffarning uylanmay bo'ydoq yurishi tarkidunyochilik emasmi? Onaga bo'lgan sovuq munosabati toshbag'irlik oqibatimi? Aslo! Gap shundaki, Muzaffar halol, vijdonli, qalloblikni aslo ko'tarolmaydigan yigit, u farzand sifatida har holda onasini unutolmaydi, biroq ona xiyonati, bu xiyonat tufayli otasi hamda o'zining hayoti alg'ov-dalg'ov bo'lib ketganligini ham sira esdan chiqarolmaydi. Buning uchun biz Muzaffarni ko'nglida kek saqlaydigan farzand deya olmaymiz. Muzaffar shaxsiy hayotda baxtsiz, omadsiz. Ammo uni ojiz-notavon deya olmaymiz. Chunki Muzaffar aqlli, andishali farzand sifatida onaga qarshi borolmaydi. Buning ustiga onaning holi ma'lum, u o'zi yo'l qo'ygan

gunoh jabrini torta-torta alam iztiroblar, armon-u pushaymonlar olovida kuyib adoi tamom bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsa, bu asarda kitobxonni jonli o'tmishimizning eng qora kunlarida ham o'zligini yo'qotmay yurt uchu el manfaat uchun jonini tikkan har qanday qiyinchiliklarga qaddini tik tutib kurrashadigan insonlar timsoli hayoti tasvirlangan.

Qiyinchiliklar davrida o'z qornini nafsini o'ylagan, oson yo'lni tanlab xiyonat, yo'liga kirib o'z yaqinlaridan voz kechgan insonlar oxir oqibat el nazaridan qolib, pushaymonlik olovida qovurlilishi aks etganasar. Zero bir donishman aytganidek "Bu dunyoda eng oliy jazo el nazaridan qolish"dir. "Ikki eshik orasi" romani ana shularni o'zida aks ettirgan mumtoz asardir.

II BOB. MILLIY AN'ANALAR TASVIRI VA UNING OBRAZ TAKOMILIDAGI BADIY VAZIFADOSHLIGI

2.1. Milliy an'ana va tasvir o'ziga xosligi.

Har bir davr milliy adabiyotining yetakchi xususiyatlaridan biri falsafiy-estetik qarashlarning xalq hayoti, an'analar bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asar millat sajiyasining ikkilamchi ko'rinishi bo'lib xarakter to'laqlonligini belgilaydigan hamda estetik mohiyatini yuzaga chiqaradigan tayanch nuqta hisoblanadi. Zero, muallif ijodiy niyatiga bo'ysundirilgan qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy va madaniy-ma'rifiy sajiyasi hayotni poetik tadqiq etish ijodiy taomillarini belgilaydi. Ayni paytda milliy qadriyatlar barqarorligi hamda unga munosabat ijtimoiy tafakkur takomiliga ta'sir o'tkazadi. Adib ijodida aks etgan milliy ma'naviyat ifodasi belgilari, bir tomondan ifoda shaklining hayotiylikini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, ijodkor uslubi va estetik ideal munosabatini sintezlashtiradi. Aynan ilg'or milliy dastur va an'analar xalq ruhiy hayotining parallel chiziqlari ekanligini hisobga olsak, adabiyotning gumanistik mohiyati yanada to'laroq in'ikos etadi. Shuningdek, obrazli ifodadagi diffuziya reallikni anglash hamda anglatish miqyoslarini sharhlaydi. Faktografik belgilar davomli izlanishlar natijasi o'laroq mutaql ma'no taraqqiyotidan uzilib ijodiy munosabat yaxlitligi hamda o'ziga xosligini ta'minlashga yordam beradi. Xususan, O'.Hoshimov asarlarida o'zlikni anglash, milliy mushohada tarzini suvratlash, unga g'oyaviy-badiiy niyatni singdirish tonal ifodani shakllantiradi. "Ikki eshik orasi" romani misolida bu hodisalarni birgalikda ko'rib chiqamiz: *"Arava ichiga qalin qilib to'shalgan ko'rpachada paranji yopinib o'tiribman. Bir tomonda oyim, bir tomonimda Fotima kelin. Xotinlar to'xtovsiz yor-yor aytadi:*

Tog'da toychoq kishnaydi, ot bo'ldim, deb yor-yor,

Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim, deb yor-yor.."²⁶

Asarda to'y marosimi bilan bog'liq tafsilotlarga keng o'rin ajratilgan. Asrlar davomida shakllangan milliy an'ana uch qahramon tomonidan izohlanadi. Bolakayning sodda, jozibali talqini, Robiyaning ruhiy tahlil teranligi saqlangan

²⁶ Hoshimov O'tkir. Ikki eshik orasi: Roman. - T.: "Sharq", 2012-yil

bayoni va Qora ammaning to'y tashvishlariga yo'naltirilgan kechinmalari marosimni turfa nuqtalardan yoritish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida xarakter qirralarini oydinlashtirish, milliy urf-odatlarining xalq hayotidagi salmog'ini kuzatishga yordam beradi. Nutqiy faoliyat vositasida kitobxon Muzaffarning bolalarcha soddaligi va tiniq samimiyati, Robiyaning ruhiy barkamolligi, Qora ammaga xos mehr-oqibat rishtalari bilan tanishadi. Bir tafsilotning uch talqini asar syujetini bog'lab turuvchi chiziq tarzida aniq tasavvurlar uyg'otadi. Bu tasavvur xalq hayotining umumiy qonuniyatlarini ifodalab, insonlararo tipik manzaralar xarakter takomilidagi o'sish-o'zgarishlar hajmini uyg'unlashtiradi. Bu mushtaraklik o'z navbatida ham ijodkorning ijodiy tamoyillarini, ham ijtimoiylik belgilarini mujassam etgan. O'z-o'zidan ayonki, adib asarlarida milliy qadriyatlar va xalq ruhiyati xarakter tabiatini belgilaydi. Aynan qahramonlar tafakkuri va faoliyatida ma'naviyat hamda e'tiqod ta'siri goh epik unsurlar, goh lirizm zalvori vositasida oydinlashadi. Kichkinagina to'y detali bir necha obrazlar hayotini o'zgartirib yuboradi. Binobarin, marosim Robiyaning orzu-istaklari, samimiy muhabbatini chegaralaydi. To'g'rirog'i, hayotiy zaruriyat uni o'z izmiga bo'ysundiradi. Tabiiy ehtiyoj (Muzaffar qismati) Qora ammaga ham kuchli ruhiy zarba beradi. Negaki, Robiyaning Shomurodga uzatilishi Kimsan uchun ochilgan aza bilan borabar edi. Zahmatkash ona qalbida doimiy va davomiy ravishda umid, ilinj hamda ishonch tuyg'usi yashashini e'tiborga olsak, psixologik kolliziyalarning tasvir markaziga ko'tarilgani ayonlashadi. Ma'lumki, milliy urf-odatlar va an'analar xalq tiynati kabi soddaligi, qabariqligi, yorqinligi va ustuvorligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham mentalitetga xos atributlar tinglovchi ongiga tez etib boradi. Bu xususiyat, bir tomondan, tushuncha, tasavvur hamda tafsilotlarning qayta-qayta ishlanganligi - sayqal topganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan motivizatsiya zahirida qayta hayotiy tajribalar, falsafiy umumlashmalar vositasida izohlanadi. Demak, O'.Hoshimov o'z ijodida sharqona mifo-poetik qarashlardan foydalanar ekan, birinchi navbatda, aqidaning umuminsoniy mohiyatiga e'tiborni qaratadi. Muallif tomonidan tanlangan epizodik lavhalar, rivoyat va afsonalarda mazmun ijodkor fitratida qayta baholanadi, estetik

qiymat kasb etadi. Aynan adib roman va qissalarida lirik-falsafiy tahlilning ustuvorligi ishlanganlik darajasi bilan o'lchanadi. Fikriy ifodaga moyillikda Chingiz Aytmatov, Odil Yoqubov, Asqad Muxtor an'analari ta'siri seziladi. Adibning xalq og'zaki ijodi manbalaridan foydalanish darajasi o'ziga xosligini lirik jo'shqinlik va mushohadakorlik omuxtaligida ko'rish mumkin. Agar qirg'iz yozuvchisida epik kenglik intellektual ma'rifiy sarhadlardan oziqlansa, lirik bosim O'.Hoshimov ijodini quvvatlantiradi.

Ijodkor xalq fitrati va e'tiqodiga alohida mehr bilan yondashadi. Mana shu jihat uni millatparvar adib deb atash imkonini beradi. Garchand afsona, rivoyat, milliy urfodatlar o'rin almashinuvi san'atkor izlanishlarida bo'rtib ko'rinsa-da, shakliy mundarija o'ziga xosligi, kompozitsion yaxlitlikka putur etkazmaydi. Zotan, yozuvchi badiiy niyati va unga bo'ysundirilgan tafsilot hajmi uslubiy manyoraning poetik o'zgachaligini belgilab beradi. Jumladan, qahramon nutqida poetizmlar, mifologizmlar ifodasi muallif nazariy-estetik qarashlarining muvoziy belgilari hisoblanadi.

O'tkir Hoshimov asarlarining g'oyaviy bazasini insonning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy mohiyati tashkil etadi. Bu uchlik estetik nuqtai nazarning milliy an'analarga munosabat yordamida ijodiy yaxlitlik kasb etadi. Adibning xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi an'analarning uzviy aloqadorligi mahsulidir. Ma'lumki, madaniyat tushunchasi har bir xalqning turmush-tarzi, yashash shart-sharoitlari, ijtimoiy-estetik tafakkuri singari kategoriyalarni qamrab oladi. To'g'rirog'i, madaniyat bu hayot tezisiga suyangan holda, aytish mumkinki, har bir millatning o'ziga xos tabiati, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar o'zgachaligi, an'analar barqarorligi demakdir.

Mentalitetga xos xususiyatlar milliy qadriyatlar timsolida hayot o'sish o'zga-rishlarining ulkan ma'naviy patensialini jamlaydi. Aniqrog'i, psixologik kechinmalar va boy tajribalarning sintezi tarzida paydo bo'ladigan hamda rivojlanadigan an'ana xalqning betakror ruhiy olami butunligini ta'minlaydi. Bu betakror ruhiy olam ijodkor botinida ham aks sado beradi. Shu ma'noda har bir adib izlanishlarida milliy motivlar va ulardan foydalanish darajasi chuqur nazariy

bilim hamda adabiy mahorat mushtarakligiga borib taqaladi. Negaki, muayyan aqidaning asarda qo‘llanishi mazmunning salmoqdorligi va realligini belgilaydi.

San’atkor badiiyatida milliy an’analar quyidagi uslubiy vazafalarni bajaradi: Xarakterning to‘laqlonligi va mukammalligini tavsiflaydi. Xususan, “O‘zbeklar” hikoyasida o‘lim va uning badiiy talqini uch obraz mohiyatini ochib beradi. Binobarin, milliy odat – Iskandar Vahobovichning Otinoyini so‘nggi manzilga kuzatish jarayonida ona-farzand-kelin munosabatlarining ma’naviy tahlili tadqiq markaziga ko‘tariladi. Marosim davomida Otinoyining naqadar bag‘rikeng inson bo‘lganligi, ma’naviy barkamolligi ayonlashadi. Aynan qahramonning mahalla dasturxonchisi bo‘lganligi, irim-sirim, udumlarni yaxshi bilganligi undagi xarakter qirralarini mantiqan dalillaydi. Asarda epizodik holatlar ona qiyofasini muayyan darajada tavsiflaydi. Biroq, yo‘l-yo‘lakay berilgan shtrixlar obraz mohiyatini ochib berish uchun etarli emas. Muallif qahramon vafoti bilan bog‘liq hayotiy an’anaga bir necha funksiyani yuklaydi. Binobarin, mahalla ahlining marhumga munosabati o‘zbek ayoli timsolining umumlashmasini ifodalaydi:

“Bekatga chiqishganda trolleybus kelib qoldi. To‘xtashi bilan duv etib o‘ttiztacha erkak tushdi-yu tobutga yopishdi.

- Kim?-deb so‘radi ziyolinamo ko‘zoynakli yigit Iskanlarning yonida ko‘z yoshini to‘nining yengiga artib ketayotgan Xolmat akadan.

- Otinoyim!

- Ie!-ko‘zoynakli yigit rangi o‘chgancha tobutga qaytadan tirmashadi.”²⁷

Mazkur tasvir shakli onaning mahallada tutgan mavqei yuksakligidan dalolat beradi. To‘g‘ri, milliy an’analarimizga ko‘ra qazo qilgan insonni hurmatlash, u haqda yomon gaplardan tiyinish odat tusiga kirgan. Biroq bu o‘rinda muallif Otinoyi timsolini xarakterli tafsillar bilan ta’riflab boradi, kitobxonni ruhiy holatga tayyorlaydi. Hikoyadagi ikkinchi syujet chizig‘i Iskandar obrazi ziddiyatlarini aks ettiradi. Bu xarakter tabiatidagi murakkablik farzandning onaga munosabati orqali aniqlikka erishadi. Asarda o‘rni-o‘rni bilan qo‘llangan jo‘shqin lirizm ifoda

²⁷ Ҳошимов Ў. Ҳадикли тушлар. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-Б.261.

tiniiqligi hamda xarakterlararo uyg'unlikni yuzaga chiqaradi. Marosim mobaynida Iskandar xotiralarida jonlantiriladigan voqealar silsilasi ona obrazini izchil suratda yangi-yangi qirralar bilan boyitib boradi hamda hikoya adog'ida qahramon tiynati o'zbekona milliy mohiyatga aylanadi. "O'zbeklar" kulminatsiyasida uch qahramonning o'zaro munosabati tursada, muallif asosiy e'tiborni ona siymosi umumlashmasini tadqiq etishga yo'naltiradi. Voqealar bayonida adib har bir surat, manzara, holatning tabiiy chiqishiga urg'u beradi. Mahalla-kuyning faryod chekish, bolalarning to'n kiyib, tobut oldida «buvijonim» deb yig'lashi, Xolmat akaning tushkun kayfiyati Otinoyi qiyofasida yashirin ulkan mehr-oqibatning samarasidir. Farzandning karaxt ahvolga tushib qolishi ham tabiiy asosga ega. Qolaversa, Iskandar Vahobovich ilk bor xalq taomillarning ulug'vorligini, Otinoyining el-yurt orasida tutgan mavqeini his qiladi: *"Iskandar yuk mashinasi faqat stol-stulni olib kelishga mo'ljallanmaganligini tushundi. Laylaktepa olis, to'rt chaqirim keladi. Oyog'i ostida o'ralashayotgan o'n-o'n ikki yashar bolakaylar ham to'n kiyib, belini bog'lab olganiga avval hayron qoldi-yu, keyin tushunganday bo'ldi. Ehtimol, Xolmat akaning bolalaridir, ehtimol qo'shni bolalardir... old tomoniga paranji, orqasiga mursak yopilgan tobutni olib chiqishganida hammayoq dilni o'rtovchi faryodga to'lib ketdi. Kelinoyi, Bahri xola, Muattar xola, allaqanday qizlar, kelinlar chuvvos solib tobut ketidan yugirishdi.*

- *Voy onam!*

- *Ro'shnolik ko'rmagan onam!*

To'n kiyib, belbog' bog'lagan bolakaylar ko'zidan duv-duv yosh oqib:

«Buvijonim, buvijonim!» deb chirillashar edi. Xolmat akaning mo'ylovi ho'l bo'lib ketgan, nuqul titraydi:

- *Hammamizning onamiz edingiz-a!"*²⁸

Yozuvchi Iskandar tabiatiga bo'yoqdor chizgilar berar ekan bir haqiqatni

²⁸ Ҳошимов Ў. Ҳадикли тушлар. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-Б.260.

kashf etadi: milliy an'analar, urf-odatlariga sodiqlik va e'tiqod mustahkamligi mahalladan boshlanadi. Ayniqsa, mentalitetga xos ezgu udumlar shu yerda barqaror ko'rinishga ega. Aynan noqobil farzandning fojiasi ham el-yurtdan uzoqlashganligi, aniqrog'i milliy qadriyatlarni unutayozganligi bilan bog'liq. Shunga qaramay Iskandar Vahobovichning ko'zi ochiladi. Voqealar silsilasida u o'zligiga nazar tashlaydi. Biroq, endi juda kech, g'isht qolipdan ko'chgandi! Hikoyada e'tiborni tortadigan epizodik obraz – qo'shni Xolmat aka timsoli ham muayyan maqsadga bo'ysundirilgan. Adib undagi mehr-oqibatni Iskandar qiyofasidagi ziddiyatlarga qarshi qo'yadi. Tipologik va analogik tahlil ham farzand, ham ona xarakterini yorqin ifodalashga yordam beradi.

Provodnik Xolmat aka asarning ikki-uch lavhasida ishtirok etsa-da, oddiy xalqning tipik vakili darajasiga ko'tariladi. Dastavval kitobxon uni sodda, to'pori ko'rinishda tasavvur qiladi. Voqealar oqimida Xolmat akaning yangi sifatleri namoyon bo'la boradi. Aynan Otinoyining vasiyatidan xabardorligi (nega farzand emas!) qo'shnisi bilan munosabatlari teranligini milliy, umuminsoniy mohiyatga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Tasvir drammatizmi hikoya adog'ida eng yuqori nuqtaga ko'tariladi:

“...Iskandar o'ylagandek tobutni mashinaga ortishmadi. Yelkada ko'targancha yo'lga tushishdi. Iskandar tobut bandidan ushlab olti-yetti qadam yurgan edi, uni siqib chiqarishdi. U tobut bandiga hadeb qo'l cho'zar, ammo navbat tegmas edi. Tanish-notanish odamlar goh oldinga, goh orqaga o'tib talashib-tortishib tobutga yopishar, har kim iloji boricha ko'proq ko'tarishga, yelkasini uzoqroq tutib berishga harakat qilar edi. ...Ko'chada harakat butunlay to'xtab qoldi. Burilishga yetganlarida Iskandar beixtiyor orqasiga qaradi. Odamlar oqimi ikki bekat orasiga cho'zilib, butun ko'chani to'ldirib kelar, tobut ularning elkasida osoyishta tebralib borar, oqimga yangidan-yangi odamlar kelib qo'shilar, qo'shilar, qo'shilar edi...”²⁹

²⁹ Хошимов Ў. Хадикли тушлар. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд.-Т.: Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-Б.260.

Epik bayon ona qiyofasining ulugʻvorligi, millat sajiyasini oʻziga singdirganligi, umuminsoniy masalalarni uyushtirib turganligi bilan diqqatga sazovordir. Zero, yozuvchi niyatidan qahramon tabiatidan falsafiy umumlashmaga qadar masofa ijodiy koordinatalarni belgilaydi. Bu ijodiy koordinatalarda shaxs omili va jamiyat aʼmoli mushtarak hodisaga aylanadi. Ikkinchidan, insonlararo, xarakterlararo va millatlararo mushtaraklik voqealar tizimining umumiy sajiyasini aks ettiradi. Shu tariqa subʼektiv obrazning obʼektiv qirralari davr va psixologik qonuniyatlarning dramatik va hissiy bosimini shakllantiradi. Muallif aksar talqinlarda milliy anʼanalarning hamohanglikni uyushtirish, oʻzaro hamjihatlikni boʻrttirish vositasida oʻziga xos maʼnaviy konsepsiya yaratadi. Bu maʼnaviy konsepsiyaning bir oʻq ildizi maʼrifiy tarbiya asoslariga yoʻnaltirilsa, ikkinchi oʻq ildizi ruhiyat va umuminsoniy qadriyatlar orasidagi muvozanatni tiklashga borib taqaladi. Toʻgʻrirogʻi, adib ijodining magʻzini eʼtiqod butunligi, qadriyaviy estetik baholash meʼzoni, inson omilining axloqiy sifatlari tashkil etadi. Darvoqe, maʼnaviyat va maʼrifat qanchalik keng tushuncha boʻlsa, ijodkor ishlanishlari qamrovi ham shunchalik teranlashadi.

Oʻ.Hoshimov maʼnaviyat va maʼrifat, tarbiya va taʼsir oʻzagini milliy eʼtiqod darajasi belgilaydi. «Dunyoning ishlari» qissasida Klava xola operatsiya qildirish uchun shifokorga pora berishga majbur boʻladi. Bu kichkina holat millatning naqadar oʻzlikdan uzoqlashayotgani, asrlar osha birovning haqi harom deb oʻrgatgan oʻzbeklar orasida tuban urf-odatlar, rusumlar paydo boʻlayotganini koʻrsatadi. Bu detal eʼtiqod hamda anʼana uygʻunligi asosiga qurilgan milliy tarbiyaning susayganligidan dalolat beradi. Zero, har bir xalqning ruhiy potensialini maʼnaviy qadriyatlarga munosabat, milliy aqidalarning ijtimoiy ongdagi barqarorligi tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan sanʼatkor poetikasi ham adabiy-estetik tomondan, ham maʼrifiy tomondan taʼsir oʻtkazuvchi omilga aylanadi: *“Dushman! Hammasi dushman! Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi –chayon!..”* - Soat daʼfatan xayoliga kelgan gapdan koʻnglida alam va ayni paytda allanechuk yengillik tuydi... Bir mahal qarasa, koʻylagi osigʻliq oʻrik

shoxida sapsariq mevalar yaltirab turibdi. Pastda emas, qiri uchida. Xayoliga g'alati o'y keldi.

- Husanxo'ja! Husanxo'ja!

- Nima?-degan ingichka ovozi keldi.

- O'rik olib tush. Huv, yuqori shoxdan. Tez bo'l!

- Yiqilib tushaman-da.

- Yiqilmaysan.

Husanxo'ja uzun ishtonini shaloplatib yaqin keldi.

- Kesak otaqolay?

- Mayli, -dedi Soat loqaydlik bilan....mang, Soat aka!

- Yuvmaysanmi, ahmoq!- Soat ko'zini ola-kula qildi. –Tuproqqa qo'shib yemayman-ku! Husanxo'ja anhor sohiliga qorni bilan yotib, o'rikni chayib keldi.

- Mang, aka!

- Yorilibdi-ku, eshshak! Menga butuni kerak!- Soat o'riklarni anhorga uloqtirdi. – Chiq shoxga!-dedi o'dag'aylab. – Butunidan uzib tush!

Husanxo'ja birpas angrayib turdi-da, alam bilan chiyilladi:

- Ey, bor! Men sening malayingmanmi?

- Nima?- Soat sapchib o'rnidan turdi. – Nima deding?- tarsakilab yuborgan edi, Husanxo'ja ag'darilib tushdi.

Shunda...kutilmagan hodisa ro'y berdi. Ovozi do'rillab qolgan tengdoshlari quyundek yopirilib keldi. To'rttasi baravar yopishdi. Biri qo'ltig'idan oldi, biri oyog'idan... Suvga uloqtirib yuborishdi.”³⁰

Tasvir jarayonida voqealar tizimi bir-biriga zid bo'lgan g'oyaviy chiziq–yangicha dunyoqarash hamda milliy e'tiqod konfliktidan oziqlanadi. Fikriy to'qnashuv hatto bolalar ruhiyatiga ham ta'sir o'tkazgan. Shunday ekan Soatning o'z tengdoshlaridan begonalashuvi tabiiy hol, albatta. Kichik badiiy lavhada katta ma'naviy yuk yashirin: yangicha dunyoqarashga xos norozilik, alamzadalik bo'lg'usi Komissar kayfiyatida zohir. Milliy an'analar asosida voyaga etgan

³⁰ Ҳошимов Ў. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд. Ҳадикли тушлар.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиётва санъат нашриёти, 2002.- Б.34.

Husanxo‘ja timsolida esa sharqona bag‘rikenglik, milliy tarbiya nishonalari seziladi. Undagi kattaga hurmat hissini Soatdagi injiqliklar ham o‘ldira olmaydi. Eshonzoda «seni tosh bilan urganni, osh bilan siyla» aqidasiga amal qilgan holda, garchand tarsaki egan bo‘lsa ham Soatni qutqarib qolish fikri undan chiqadi. Allaqachon ongi sho‘ro mafkurasi bilan zaharlanib ulgurgan boladagi g‘urur, to‘g‘rirog‘i, alamzadalik hissi o‘jarlik bilan qorishib, yordamni rad etadi. Shu nuqtada yangilik va an‘anaviylik ziddiyati, ulardagi mazmun-mohiyat bir qadar oydinlashadi. Ayni paytda muallifning g‘oyaviy-badiiy niyati ktiobxonni keskin falsafiy hukm sari etaklaydi. Unga ko‘ra, kommunistik maslak o‘zbekona turmush tarzini izdan chiqardi. Jamiyat ma‘naviy tanazzulini boshlab berdi. Bu jarayon millat sajiyasining ikkiga ajralishini ta‘minlaydi. O‘z-o‘zidan ayonki, ijtimoiy munosabatlardagi e‘tiqod butunligi va mustahkamligi milliy taraqqiyot garovidir. Bo‘lg‘usi komissar xarakterida kommunistik axloq normalariga oid yana bir jihat – odamlarga ishonchsizlik bilan qarash, shubha, gumon hamda adovat qabarib ko‘rinadi. Ifodada mazkur holat qahramonning o‘y-xayollari tarzida beriladi:

“- Eshitib qo‘ylaring! –dedi Soat alam aralash g‘azab bilan. –Men Komissar bo‘laman! Albatta bo‘laman! Hammangni otaman! Bitta-bittadan otaman!”³¹

Soat G‘anievdagi yangicha e‘tiqod belgilari shu manzaradan boshlanadi. Otasining o‘limi oqibatida uning shuurida paydo bo‘lgan qat‘iy xulosa (otasini dushmanlar o‘ldiradi. Boy, eshon, amaldorlar hammasi dushman) kommunistik tuzum manfaatlariga mos kelardi. Shu boisdan ham undagi maqsad-intilishlar sho‘ro tarbiyasi misolida maromiga etadi. Muallif qahramon ruhiyatini tipik sharoit bilan bog‘liq holda yoritir ekan, ifoda aniqligini birlamchi o‘ringa ko‘taradi.

Adabiyotshunos A.Rasulov yozuvchi asarlaridagi badiiy aniqlikka urg‘u berar ekan: *“Dunyoning ishlari», bir qaraganda, juda oson yozilganday ko‘rinadi: muhimi hamma qahramonlar tanish. Lekin bittagina detalni aniqlash uchun yozuvchi olamjahon aziyat chekishi mumkin. Qissada Acha xolaning olti qirrali*

³¹ Хошимов Ў. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд. Ҳадикли тушлар.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиётва санъат нашриёти, 2002.- Б.34.

toshi haqida gap bor. Yozuvchi bu tosh muhra deyilishini aytgan. Ammo muhra soʻzini bilib olish uchun u oʻnlab loʻlilarga fol ochtirgan, avranib-avragan (muhrani bilib olgan)”³²-deb yozadi. Maʼlumki, insoniyat tafakkuri taraqqiyoti milliy anʼanalarning ham rivojlanib borishiga imkon tugʻdiradi. Negaki, ong, saviyaning takomillashishi maʼnaviy talab, ehtiyojlarni ham oʻzgartirib yuboradi. Shu tarzda xalq turmush darajasi, odat va koʻnikmalari ham jiddiy yangilanadi. Aslida milliy anʼanalar tarixi odamzod fikrlash doirasining uzviy qismi hisoblanadi. Binobarin, adibning yirik asari –“Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida talqin qilingan toʻy manzarasi mushtarak milliy belgilarga egaligi bilan bir qatorda badiiy makon va zamonda oʻzaro tafovutlanadi. Ikkala badiiy polotnoni ham bogʻlab turadigan xususiyat – milliy marosim tasviri uch qahramon talqinida berilishidir. Mazkur uslubiy manera bir tomondan, voqelikni turfa nuqtalardan estetik baholashga sharoit tugʻdirsa, ikkinchi tomondan, tafsilotni butun murakkabligi, ikir-chikirlarigacha qamrab olishga yordamlashadi. “Yongʻoq pishgan kezlari uyimizda toʻy boʻldi. Abduvalining dadasi «Tuya» sartarosh bostirma panasida qoʻy soʻyib, oyogʻidan olma shoxiga osib qoʻydi. Hovlining oʻrtasida chuqur qazidi. Besh-oltita erkak «ha boʻl, ha boʻl» qilganicha eshikdan qiyalatib dashqozon olib kirishdi. Boyagi chuqurga oʻrnatishdi. Biz ham yasanib olganmiz. Dadam ataylab Toshkentga tushib, menga yangi kostyum-shim, oyogʻimga botinka olib kelgan. Boshimda yap-yangi baxmal doʻppi... Qorongʻi tushar-tushmas tumonat odam toʻplandi. Bashang kiyingan erkaklar, yasan-tusan qilgan xotinlar... ...qarasam hovli oʻrtasida lovullab gulxan yonayapti. Kattakon toʻnkadan charsillab olov sachrayapti. Doshqozon boshida kuymalanayotgan sariq xotin –Abduvalining oyisi gulxan atrofida irgʻishlayotgan bolalarga qoʻlidagi choʻmichni oʻqtalib baqiryapti:

- Yonib ketasan, tinmagur taka! Yonib ketasan!

Dadamni tanimay qolibman. Vuy! Shu – oʻzimning dadammi? Egnida havorang kostyum, boshida yap-yangi chust doʻppi. Moʻylovi tekis tarashlangan.

³² Расулов А. Ардоқли адиб. Тошкент: Шарқ, 2001 йил, 396-бет

Ie, dadamning shuncha ordeni bor ekanmi? Bitta... ikkita... uchta...”³³

Muzaffar tilidan bayon etilgan to'y tasviri o'zining soddaligi va tiniqligi bilan ajralib turadi. Undagi milliy an'ana ob'ektiv kategoriya sifatida obrazni to'ldiradigan, hayotiy tafsilotlarning hissiy qamrovini belgilaydigan estetik birlik ifodalanadi. Yorqin taassurotlar bo'yoqdorligi va sifatlovchilarning tabiiy shamoyili voqealar rivojini estetik markazga yo'naltiradi. Ushbu tushunchada epizodlarni saralash, uyushtirish va g'oyaviy-badiiy jihatlarni jamlash ustuvorlik qiladi. To'y tafsilotlari manzaralari yoshgina bolakayning kuzatishlari hosilasidir. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, marosim bilan bog'liq ichki nutq aynan bola tilidan berilishi ifoda madaniyatining yetakchi holatni atroflicha yoritish imkoniyatini yaratadi, monologik ong zahirida tiniq bir samimiyat, qiziquvchanlik va sinchkovchanlikka moyillik badiiy hujayralarni shakllantiradi. Hali voqealar rivoji va uning badiiy markazini tashkil etadigan an'anaviylik mazmunini to'la anglab etmagan, biroq milliy rasm-rusumlar tabiatida xalq zakosiga xos ulug'vorlik yotganligini idrok etgan Muzaffar hikoyasida epik izchillik sezilmaydi. Voqeliklar bolalarcha tasnifi muallif estetik tamoyillarida uyg'unlashib muayyan poetik maqsad – milliy aqidalarga bo'lgan munosabatni aks ettiradi. Yozuvchi to'y lavhasini chizar ekan yosh xususiyatlarga xos talab va taklifni ham yoddan chiqarmaydi. Mazkur jihat tadqiqotning tabiiy oqimini asrashga yordam beradi. Hatto qo'llangan badiiy shtrixlar, xarakterli belgilar, yorqin tafsilotlar bolalik psixologiyasidan o'sib chiqadi. Ifodadagi primitiv me'yorlar ham millat tiynatini to'laroq tasavvur etishga monelik qilmaydi. Ayni paytda ma'naviy qadriyatlarga munosabat Muzaffar qiyofasida tavsifiy alomatlarni mujassamlashtiradi.

«Tushda kechgan umrlar» romanida esa muallif marosim jarayonini o'zgacha miqyosda suratlaydi. To'g'rirog'i, to'y tafsilotlari rus millati vakili – Grisha tomonidan sharhlanadi: *“Bularning to'yi g'alati bo'larkan. Bir kun oldindan domning tagida kechasi bilan g'ovur-g'uvir. Shovir-shuvir... Terak shoxiga minginchi lampochka osilgan. Birovi sabzi tozalayapti. Yana bittasi ketmon bilan er kovlab yotibdi. Nariroqda qozon! Shunaqangi kattaki, borsh*

³³ Хошимов Ў. Икки эшик ораси. -Т.: Шарқ, 2000. –Б.106-107.

pishirsang, butun boshli polkka etadi. Kechasi bilan dimog'iga allaqanday notanish hidlar kirib, mijja qoqmay chiqdi. Endi ko'zi ilingan ekan, allaqanday dahshatli tovushdan uyg'onib ketdi. G'art-g'urt! Zum o'tmay, afrika qabilalarining tam-tamiga o'xshagan tovush ham qo'shildi. Nuqul bang'illaydi! Grisha yuragi gupillab, deraza oldiga bordi. Ochib qarasa, chiroqlar ma'shal. Ustiga oppoq dasturxon yozilgan uzun-uzun stollar qo'yilgan. Shundoq deraza tagida bittasi ikki quloch keladigan mis trubani g'arillatyapti... Hali deraza sharaqlab ochilganda ko'zi tushgan ekanmi, qozon tepasida turganlardan bittasi qo'l silkib shang'illadi:

- Tushaver, sosed! Palov tayyor!

Sahar-mardonlab ko'zi uchib turibdi-da, palovingga!

*...Stolda o'tirishini tomosha qilsang bularning! Xudo haqqi, qoshiq ushlashni bilmaydi! Oshni qo'lda eydi. Qo'da! Chollar-ku mayli, boshqalar-chi? Boshlarida shlyapa, bo'yinlarida galstuk, oshni qo'li bilan eydilar. Ertalabdan bir lagan palovni urib qorni yorilib ketmaganini! Osh eb bo'lib, yuziga fotihayam tortadi. Naq kinoning o'zi. Xudo haqqi, dekoratsiya kerakmas!"*³⁴ Keltirilgan parchada voqealar borishi analitik xarakter kasb etadi. Qahramonning kinoyaviy, istehzoli nutqi tabiiy asoslarga ega. Negaki, Grigoriy O'zbekistonga yordam berish uchun kelgan mutaxassis sanaladi. Unda allaqachon millat haqida salbiy fikr uyg'otilgan. Shunday ekan qahramon nutqida o'zbek xalqiga bo'lgan nafrat zohir topadi. Uning fikricha, hamma o'zbeklar poraxo'r, bosmachi, o'g'ri. Shu tariqa sobiq Ittifoq miqiyosida shakllangan aqida – o'zga millatlarga bepisandlarcha munosabat tadqiq sahniga chiqadi. Personaj kuzatishlarida voqelik silsilasi muayyan izchillikda beriladi. Estetik mezon hodisalarni o'z qarichi bilan o'lchashi obraz tabiatiga tashqi tavsif alomatlarini singdirish bilan bir qatorda millat an'analarning davrga hamohang evrilishlarini ham qamrab oladi. Tasvirdagi uslubiy-sintaktik parallelizm an'analarning millat hayotiga ta'siri, ijtimoiy-falsafiy-ma'naviy qirralarini jipslashtiradi. Adib ishlanishlarida mantiqiy ta'kidlarning tez-

³⁴ Хошимов Ў. Ҳадикли тушлар. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. –Б. 39-40.

tez qo‘lanishlari tavsifiy munosabatlarning ma‘rifiy salmog‘i hamda tarbiyaviy ahamiyati badiiy mezonni belgilaydi. Millat mentalitetiga xos an‘ana talqini va falsafiy umumlashma obraz tabiatining psixologik yo‘nalishini iste‘foda etadi. Badiiy aniqlovchilar to‘y tafsilotlari yaxlitligini to‘ldirish bilan birga e‘tiqod hamda ma‘naviyatning og‘riqli nuqtalarini ham izohlaydi. San‘atkorining muvoziy g‘oya chiziqlari ziddiyatini bo‘rttirishi davrning umumlashgan ko‘rinishini shakllantiradi. Ikki asardagi psixologik lavhalar tabiatini umumiy belgilar birlashtirib tursada, zamon ruhining millat an‘analariga ta‘siri ularning o‘zaro tafovutlanishini ko‘rsatadi. Moddiy-ma‘naviy asos ham urf-odatlariga, ham odamlar ruhiyatiga o‘z muhrini bosadi. Shu nuqtai nazardan «Tushda kechgan umrlar» romanidagi milliy an‘ana yangicha odat va ko‘nikmalar, rasm-rusum va udumlar bilan boyiganligi urg‘ulanadi. An‘analarning zamonaviy talqini yosh avlod ongiga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir o‘tkashishi mumkin. Xususan, nahor oshi, qiz bazmi singari an‘analar bir tomondan, ijtimoiy qatlamlarni uyushtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yoshlar tarbiyasiga salbiy aqidaparastlikni singdirishi mumkin. Buni yaxshi idrok etgan O‘.Hoshimov milliy an‘analarning gumanistik mohiyatini poetik tahlil markaziga yo‘naltiradi. Obraz va obrazlararo munosabatning ma‘nosini to‘ldiradigan, izohlaydigan hamda tartibga soladigan spetsifik belgilar xalq sajiyasining umumiy qiyofasini belgilaydi.

Yozuvchi O‘.Hoshimov asarlaridagi ko‘pqatlamlilik eng avvalo muallifning nutqiy foydalanish darajasida namoyon bo‘ladi. Uning ijodiy uslubi adabiyotning bosh mezonni hisoblangan milliy qadriyat va badiiy shartlilikning o‘zaro munosabatiga asoslangan. Ifoda usuli qudrati yangilik, originallikda emas, balki voqealar hayotiyli, tafsilotlar uyg‘unligi negizida rivojlanadi. Roman kompozitsion tuzilmasida hissiy-tahliliy uslub ustuvorligi lirik hissiyotga moyillik bilan qorishib ketadi. Xususan, jamiyat va a‘zo o‘zaro munosabatlarida milliy an‘ananing vazifadoshlik xususiyatlariga ko‘proq urg‘u bergan nosir badiiy maqsadlarining tayanch nuqtasini e‘tiqod erkinligi tashkil etadi. Shu ma‘noda yozuvchi eng razil, qabih qahramonlarni ham qoralamaydi, balki ularning hissiyruhiy- psixologik holatlarini anglashga intiladi. E‘tiqodsizlik, manqurtlik fojiasi va ularning sabab-

oqibatlari muallif talqinida eng ayanchli muammoga aylanadi. Binobarin, «Tushda kechgan umrlar»da Komissar «o'n besh yoshimda chekist bo'lganman» deya ta'kidlaydi. Qahramonning keyingi mulohazalari mushohadani to'ldiradi: chekist haqiqiy chekist bo'lib tug'ilishi kerak. Ko'rinadiki, san'atkor Soat G'aniev qiyofasidagi ko'r-ko'rona e'tiqodni inkor etmaydi. Aniqrog'i, hukmxulosa chiqarishni birlamchi vazifa deb hisoblamaydi. Yaqin o'tmishimizdan ma'lumki, kommunistik mafkura targ'iboti yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, kishilarda ishonch hissini uyg'otgan. Komissar ham yangicha e'tiqodni yoqlagan, farovon va ozod jamiyat haqidagi tasavvurlarga ishongan tipik umumlashma hisoblanadi. Undagi maslak insonni buyodkorlik ishlariga otlantirishga qodir quvvatga ega. Aslida qahramonning fojiasi ham jamiyat ma'naviy mezonlarining buzilishiga borib taqaladi. Shu nuqtada obrazning tipik sharoit hamda davriy o'zgarishlarga bog'liq holda shakllanishi oydinlashadi: *“Yugur-yugur! –deb o'yladi Komissar ensasi qotib. –Umringni uzaytirmoqchimisan? Xex! Ko'chani kesib o'tayotganingda paq etib mashina urib ketsa –tamom! Qarabsanki, eshiging oldida qo'shaloq tobut turibdi! Ikki qavatli uchastkang xotiningga qoladi. Darvoqe, ikki qavatli koshonani qanday qurdiykin, bu? Xo'p, professorsan. Xo'p, ana, oyliging sakkiz yuzdir. Sakkiz yuz so'm maosh bilan yuz ellik minglik qasr solib bo'ladimi? Poraxo'r! Hammasi poraxo'r! Tag'in bular yoshlarga adolatdan va'z o'qiydi. Mauzerni yo'ldan urganlar ham shunaqa domlalar! Yoshsan, professor, yoshsan! Aqalli, o'n besh yosh kattaroq bo'lganingdami? Elliginchi yillarda bir marta so'roq bersang, sichqonning inini ming tangaga sotib olgan bo'larding.”*³⁵ Qahramonning ichki monologi undagi e'tiqodning bir necha qirralarini ochib beradi: «o'z-o'zidan gumonlangan chekist haqiqiy chekist emas». E'tiqod muallif talqinida Soat G'anievning turmush tarziga aylanib ketgan. U hatto prinsip uchun onasidan ham voz kechadi. Biroq Komissar milliy an'analardan butunlay ajralgan shaxs fojiasini aks ettiradi. Shunga qaramasdan, uning butun hayot tarzida ham kommunistik siyosatning, ham chekistlik a'molining alomatlari sezilib turadi. Jumladan, Sovmin

³⁵ Хошимов Ў. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд. Ҳадиқли тушлар. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. –Б.209.

xodimi bilan nahor oshiga borganda ham ikki nuqtada qahramonning haqiqiy chekistligi zohir bo'ladi.

*“Komissar toqati toq bo‘lib, mashinadan tushdi. Uyg‘otishning oddiy usulini ham bilmaydi, bu galvars! Derazani mushtlash kerak! Mana bunday! Ha, barakalla! Darrov chiroq yondi. Darvoza ortida sho‘ltillagan qadam tovushi eshitildi. -Kim? –dedi erkak kishi xavotirlanib. Komissar ko‘nglida g‘urur hissini tuydi. Senga hisob berib o‘tirish qoluvdi endi! -Oching! –dedi dag‘dag‘a aralash.”*³⁶

*“Komissar miyig‘ida kulib qo‘ydi. «Demak, meni duch kelgan metro bekatiga tashlab ketasan! Gapir, Sovmin! Nega indamaysan? –dedi xayolan xitob qilib. –Xex! Albatta indamaysan-da! Yaxshilab titkilab ko‘rilsa, o‘zingning biografiyangdan ham xohlagancha illat topiladi!”*³⁷ Nutqiy faoliyat Soat G‘aniev qiyofasini oydinlashtiradigan muhim xususiyatlardan biridir. Aniqroq aytganda, qahramon o‘y-xayollari o‘z-o‘zini fosh etadigan qurolga aylanadi. Dastlabki talqinda organ xodimining g‘ururi va e‘tiqodiga sadoqati qayta uyg‘ongandek taassurot uyg‘otadi. O‘z maslagini haq deb biladigan chekist na jamiyatdagi o‘zgarishlar, na milliy ma‘naviyat ifodasini tan oladi. Undagi qorishiq tabiat: ishonchsizlik tuyg‘usi, alamzadalik kayfiyati hamda nafrat hissi tipik manqurt xarakterini kasb etadi. Aslida qahramon ruhiyatini shakllantirish an‘ana va zamon, milliy mentalitet va ongdagi jiddiy yangilanish mushtarakligidan oziqlanadi. Komissar obrazi takomili O‘zbekistonga yordam uchun kelgan Grigoriy Vasilevni eslatadi, to‘g‘rirog‘i ikki muhit, ikki millat turmush-tarzida voyaga yetgan qahramonlarni tor manfaatparastlik, xudbinlik, milliy an‘analarni mensimaslik birlashtirib turadi. Biroq, rus yigitidan farqli o‘laroq Soat G‘anievning o‘z maqsadi, e‘tiqod tarzi mavjud. Ammo bu e‘tiqod tarzi jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Undagi ulkan ma‘naviy-axloqiy muammolar teranlashishiga imkon yaratadi. Grisha esa kayf-safo, maishatni hayotning mazmuni deb biladi. Personajlarning fikr doirasidagi yakdillik milliy qadriyatlarga munosabatda

³⁶ Кўсатилиган манба. –Б.210

³⁷ Кутсатилган манба. –Б.211

ko‘rinadi. Komissarda bot-bot uyg‘onib turadigan g‘urur hissi o‘z davri kelishiga ishonch bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, uning xarakteriga berilgan chizgilarda aks etadi. Taklif qilingan mutaxassis esa milliy e‘tiqod, ma‘naviyat hamda axloq tamoyillaridan yiroq bir kimsa. Mazkur jihatlar ham qahramon nutqi vositasida tipik reallik kasb etadi. Undagi betayinlik, kalondimog‘lik shtrixlari ortida ma‘naviy muammolar yotadi. Qahramon ruhiyatidagi evrilishlar mazmun-mohiyatdan xoli yashash tarzini kasb etgan inson fojialarini ifodalaydi. Tabiiyki, milliy qadriyatlarini anglab yetmagan, ma‘naviy e‘tiqoddan uzoq kishigina o‘zga xalq rasm-rusumlariga salbiy munosabatda bo‘lishi mumkin. Shu tariqa Soat G‘aniev va Grigoriy Vasilev timsollari bir-birini to‘ldiradigan personalarga aylanadi. Darvoqe, inson hayoti ezgu maslak, aniq maqsadlar sari yo‘naltirilmas ekan, uning asosiy kasbi yemoqichmoqdan iborat bo‘lib qoladi. Bu esa o‘z navbatida koinot gultoji, zamin mehvari deya ulug‘langan odam sha‘ning numerativ qadsizlanishiga olib keladi. Buni chuqur anglagan adib insonning ma‘naviy-axloqiy qirralariga ko‘proq e‘tibor qaratadi. Jumladan, turfa xarakter, rang-barang fe‘l-atvor tahlili vositasida ijodkor odam va olam munosabatlari ziddiyatlarining teranligini umumlashtiradi. O‘z o‘zidan ayonki, O‘.Hoshimov asarlarida qahramonlar ichki munosabati –voqea tadriji ona obrazi markaziy talqinini boyitishga yordam beradi. Shu tariqa o‘zbek ayoli qiyofasi murakkablashib, millat iftixori ramzini ifodalaydi. Tarixiy muhit, ijtimoiy shart-sharoitlar fonida tasvirlanadigan xarakter tipologiyasi genetik o‘rish-o‘zgarishlardan oziqlanib, timsoliy ifoda munosabatlarini uyushtiradi. Uyushgan mohiyatga ta‘sir o‘tkazadigan yetakchi omil – milliy an‘analar ham tafsilotlar hayotiyligini saqlashga , ham obraz tabiatini boyitishga yordamlashadi. Muallif voqealar silsilasida xotin-qizlarning o‘rni va ahamiyatini yagona estetik markaz atrofida jipslashtirib, davr tabiati qatiga singdiradi. Nosir milliy an‘analar ko‘lami yordamida obraz tabiatining ikki qirrasini ochadi: bir tomondan, shakllangan e‘tiqod, ona timsolining umumiy sajiyasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, qadriyatlarga munosabat fe‘l-atvor o‘zgachaligini belgilab beradi. Demak, yozuvchi an‘anaviylikning yashovchanlik xususiyatlarini tasvirlash bilan birga sof estetik qadriyatlarning insonlararo munosabatlariga ta‘sirini umumlash-tirishga

muvaffaq bo'ladi. Aslida milliy ma'naviyat va ma'rifiy tarbiya ikki taraflama aloqadorlikka tayanadi. Birinchidan, har bir o'zbek qonida nasl-nasabi belgilaydigan millat sajiyasi yotadi. Ikkinchidan, mazkur tabiiy e'tiqod ijtimoiy-siyosiy evrilishlar zamirida yangicha shakl-shamoyilga ega bo'ladi. Bu ikki jihat yaxlit holda qahramon ruhiyati va faoliyatini bog'lab turadi. Badiiy asarni qabul qilish jarayoni kommunikasiya turi sifatida o'quvchidan muayyan faollikni, ijodiy tasavvurini ishga solib, yozuvchiga hammuallif bo'lishlikni taqozo qiladi. Ayniqsa, dinamik prinsip asosiga qurilgan xarakterlar psixikasini, xatti-harakatlarining ruhiy asoslarini anglashda bu narsa muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, bu xildagi qahramonlar ruhiyasi ularning muayyan hayotiy situatsiyalarda o'zini tutishlari, xatti-harakatlari va gap-so'zlari orqali ochiladi. Muallifning qahramon ruhiy holati haqidagi ma'lumotlari o'ta siqiq, asosan, mimik-pantomimik harakatlar, tashqi psixofiziologik belgilarni qayd etish bilan cheklangan bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quvchi qahramon xatti-harakatlarini, yuz-ko'z ifodalarini "ko'rish", gap-so'zlarini "eshitish" imkoniyatiga ega. Ya'ni, bu tipdagi qahramonlar ko'proq dramatik asar personajlariga yaqin turadi. Ayrim adabiyotshunoslarning buni psixologik tahlilning dramaturgik usuli deb atashlari bejiz emas. O'quvchi saviyasi va badiiy tasavvur imkoniyatiga qarab bunday obrazni qabul qilishda bir aktyorday obrazga kirishi, rejissorday talqin qilishi yoxud oddiy tomoshabin darajasida qolishi mumkin. Obrazni qabul qilish darajasi o'sha mavjud imkoniyatlardan qay darajada foydalana bilishga bog'liq ekani anglashiladi. O'z-o'zidan ayonki, kitobxon ongida aks etgan obraz uning statik holati (yozuvdagi ifodasi)ga nisbatan ancha keng. Bu narsa tabiiy ham, chunki yozuvchi qahramon ruhiyatiga kirib asar to'qimasida harakat qiladi. Aniqrog'i, qahramonga "evrilgan" yozuvchi uni *o'zida mavjud psixologik imkoniyatlar doirasida yaratadi*, tirik odamni kuzatgandek kuzatadi-da, sirtdan tasvirlaydi. O'zi yaratgan qahramon ruhiyatini juda yaxshi bilgan yozuvchi, tabiiyki, asarni yozayotganida (yoki o'z asarini o'qiyotganida) beixtiyor obrazga kiradi va qahramonini *g'oyat keng tushunganidan* har qanday tafsilotni ortiqcha hisoblaydi. Bu, bir tarafdin, ijodiy

aktning g'ayriushuriy tomoni bilan izohlansa, ikkinchi tarafdin, anglangan ijodiy priyom sifatida ham bo'y ko'rsatadi.

Badiiy adabiyot va san'atda realistik tamoyillarning hukmron mavqe egallashi barobari roman janrining gurkanab rivojlanishi kuzatiladi. Sababki, real voqelikni badiiy tadqiq etish, odam va olam haqidagi qarashlarni butlashu yaxlit ifodalash imkoniyatlarini berishi jihatidan romanga teng keladigani yo'q.

2.2. Davr, mavzu, obraz va muammoli roman.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlarida urush va urushning insonlar hayotiga ta'siri urush kishilari va ularning chekkan azob-uqubatlari, ularning qahramonlarning keyingi hayotiga ta'siri, qahramonlarning bu qiyinchiliklarni qanday yengib o'tganligi tasvirlangan bo'lsa, "Nur borki, soya bor" asarida davr muammolari birinchi o'ringa chiqadi. O'z navbatida "Ikki eshik orasi" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarini "qahramonlik romanlari" deb olsak, bu romanni "muammoli roman" deb olishimiz mumkin. Bu asarni syujeti bilan tanishar ekanmiz, O'tkir Hoshimovni bevosida kasbiy faolliyatiga daxildor ekanligiga guvoh bo'lamiz. Chunki O'.Hoshimov daslab o'zbek adabiyotimizga jurnalist sifatida kirib kelgan. Shuning uchun ham roman bosh qahramoni Sherzod muallifga tengdosh, ayni o'zi kabi yozuvchi – jurnalistdir. Sherzod timsolida yozuvchi kitobxonni ayni o'zi hayotda duch kelgan muammolar girdobiga olib kiradi. Jurnalistika kasib naqadar murakkab, qiyinchiliklarga boy, shu bilan birga mas'uliyatli kasib ekanligini bizga ko'rsatib beradi. Asar Sherzodjonni kasalxonaga tushish voqeasi bilan boshlanadi. Yozuvchi qahramonni kasalxonaga tushishi voqeasiga to'xtalar ekan, ijodkorga qilingan noo'rin tanqid unga qanday salbiy ta'sir qilishini ko'rsatib bradi. Zero adib o'zining "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida tanqidchiga quydagicha baho beradi: *"Ba'zi "ashaddiy" tanqidchi do'stlarimga aytgim keladi: -Mayli, birodar, sopol jomoshovni qo'ling qavarguncha savalayqol. Ammo billur guldonnaing jarangini bilish uchun uni mushtlab sindirish shart emas-ku, baraka topkur!"*³⁸ Ya'ni keraksiz noo'rin tanqid Sherzodjonni keyingi ko'ngilsizlikka, ya'ni o'zi

³⁸ O'tkir Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar". "Yangi asr avlodi", 2018.

ishlaydigan gazetada maqolani chop qilishda juziy kamchilikka yo'l qo'yadi. Majlisda dashnom olgan, qolaversa, "qattiq xayfsan" olgan jurnalist yigitni yuragi ko'tarolmay kasalxonaga tushushga majbur bo'ladi. Bu yerda ham yana bir adolatsizlik guvohi bo'ladi. Palatada joy bo'la turib bir bechora cholni yo'lakka yotqizib qo'yishgan. Jurnalist yigit shu narsaga guvoh bo'ladiki. Kasalxonada hamma bir xil kiyinib, bir xil vaqtda ovqatlansa ham shunday yozilmagan qonunlari bo'ladiki, unda odamning mavqeyi, puli, obro'siga qarab joy ajratishadi. Sherzodjon "bo'lim mudiri" bilan gaplashib bu narsaga yana bir marotaba amin bo'ladi: *"Sherzod ostonada to'xtab qoldi. Mudir boshini burib shu tomonga qaradi*

- Nima gap?

- Yettinchi palatada bitta joy bo'shadi,-dedi Sherzod sovuqqonlik bilan. Mudir yuzini o'girdi.bosh silkib qo'ydi.

- Xabarim bor.

Mudir yana shu Sherzod tomonga boshini burdi. Ko'zoynak ustidan unga sinchiklab qarab. Ammo tag'in o'sha loqayit ohangda gapirdi.

- Xabarim bor.

Bu gapdan Sherzod "yo'lingdan qolma", degan ma'noni o'qidi.

- Endi nima bo'ladi?-deb so'radi qovog'ini solib .

- Endimi?-bo'lim mudiri uzun oyoqlarini yig'ishtirib shoshilmay o'rnidan turdi. - Yarim soatdan keyin kechki ovqat bo'ladi. Ovqatlanib bo'lgandan keyin yotib dam olasiz. U ko'zoynak orqasidan Sherzodga boshdan-oyoq razm solib chiqdi-da, negadir jilmaydi.

- Kelishdikmi? Bu gapning ohangida kinoya ham, shifokorning bemorga muruvvati ham bor edi. Sherzod bir zum esankirab qoldi.

- Men bilolmay qoldim,-dedi ovozi titrab,-palatada bo'sh joy tursa-yu,kasal yo'lakda yotsa? Bo'lim mudiri miyig'ida kulib qo'ydi.

- Xotirjam bo'ling, joy bo'sh qolmaydi,-u sekin-sekin yurib yaqin keldi-da, ko'zoynagi ortidan Sherzodga qattiq tikildi,- yo o'zingizning joyingizni bo'shatib berasizmi? Sherzod bu odamdan yarim hazil, yarim ermak ohangda

gapirayotganini tushundi-yu, bolalikdan qoniga singib ketgan qaysarlik lop etib yuzini tepidi.

- Bo'pti, bo'shatib beraman!- U mudirning ko'ziga tik qarab chertib-chertib gapirdi.-Lekin men yo'lakda yotmayman. Manavi divanga chiqib yotaman. Bo'limmudiri ingichka yelkalarini to'satdan qah-qah urib kulib yubordi. Shunday kuldiki yupqa gardishli ko'zoynagi siljib ketdi. Ko'zoynagini qo'liga olib, xalatning ko'kirak cho'ntagiga solib qo'ydi. Sherzodning yelkasiga qoqdi.

- Qiziq odam ekansiz,- dedi hamon kulib. Ammo endi bu gapni kinoya ohangda emas, samimiy aytdi.-Bu bizning ishimiz, birodar. Kasalni biz davolaymiz, siz emas!

- Bilaman,-dedi Sherzod bo'g'iq ovozda,- tanasini davolaysiz, ruhini o'ldirasiz. Yo'lakdagi chol ikki kundan buyon joy kutib yotibdi. Mudir birdan jiddiy tortdi.

- Tushunmadim,-dedi qoshini chimirib.

- Nimasini tushunmaysiz?!-Sherzod keskin qo'l siltadi.-Ikki kundan buyon yo'lakda yotgan odam, nega meni tayyor joyga olishmadi,deb o'ylamaydimi? Men o'sha zormanda joyga loyiq emas ekanman-da, deb ko'ngli cho'kmaydimi?!”³⁹

U kasalxonaga tushishi bilan daslabki xaqsizlikning guvohi bo'ladi. Bu haqsizliklar jurnalist yigitning o'y-fikrlari bilan qo'shilib uning orzu-armonlari yoshlik xotiralariga olib ketadi. Adolatsiz muhitda adolat bilan yashashnin naqadar og'irligi. Uning sarguzashtlarida, ko'rgan, eshitgan va atrofida sodir bo'layotgan voqealarga borib taqalaveradi.

Jurnalist qahramon bilan birga kitobxon goh pomirning uqubatli yo'llaridan o'tadi, yer ostiga tushib metro quruvchilari huzurida bo'ladi, inson qoni rangini eslatuvchi tuproq hidini tuyadi; goh Farg'onaning olis, maftunkor qishlog'idagi qahramon tug'ilib o'sgan mo'jaz xonadonga, dimog'dor raisning dabdabali kabineti-yu, serhasham mehmonxona-siga kirib qoladi, qishloq hayoti, maktab va mehnat muammolari ustida o'y suradi; goh shahar kasalxonasida odamning mavqeiga qarab muomala qiluvchi bo'lim mudiriga, savdo xodimi Sayfi

³⁹ O'tkir Hoshimov. Nur borki, soya bor. Roman. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti . T.-1977.

Soqievichga to‘qnash keladi. Xastalikning bir xona ichida ma’naviy tuban kimsa bilan turishning iztiroblarini yurakdan his qiladi. Sayfi Soqievich bilan tanishuv shu bilan tugamaydi, uni kitobxon oilasida, serhasham saroyida, ish kabinetida takror-takror uchratadi; bu uchrashuv va tanishuvlarning har biri meshchanlarcha hayot kechirishga, meshchanlik psixologiyasiga o‘qilgan aybnomadek tuyuladi.

Yozuvchi Sayfi Soqievichning o‘g‘li Sirojiddin bahonasida oliy o‘quv yurti, ilm dargohidagi mojarolarni qalamga oladi. Sirojiddinning oilaviy turmush tarzi tasviri asarning eng puxta sujet tarmoqlaridan birini tashkil etadi.

Qahramonning hayot sarguzashtlari – uning shirin va hazin bolalik xotiralari, barbod bo‘lgan ilk sevgi iztiroblari, alomat qiz Zuhra bilan muloqotlari, Zuhra oilasi tarixi o‘zicha mustaqil bir qissani tashkil etadi. Buning ustiga aktrisa Zuhra muallif uchun hayotning yana bir jabhasiga – teatr, san’at olamiga kirib borish, san’at va adabiyot muammolariga munosabat bildirish imkonini beradi.

Roman strukturasi, uning asosiy sujet yo‘nalishlari, unda qamrab olingan hayotiy muammolar doirasi, qisqacha aytganda, ana shulardan iborat. Asar bosh qahramoni ehtiros kishisi, yozuvchi – jurnalist bo‘lganidan arzimmas narsadan ham qalbi tug‘yonga tushadi, salgina qalloblik, nopoklik aralash-gan joyda o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi, hodisalar ustidan tez hukm chiqaradi. Muallif qahramon qalbida jo‘sh urgan ehtiroslar to‘lqinidan salmoqli ma’no axtaradi, uning shaxsiy kechinmalari ko‘pincha ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, uni qiynagan jumboqlar aksari roman yozilgan 70-yillar odamlarining tashvishi, “tili uchida turgan gaplar” bo‘lib chiqadi. Shunisi muhimki, qahramonlar qalbidagi ehtiroslar tug‘yoni yozuvchining ilk hikoya va qissalaridan farqli o‘laroq, sentimentallikdan holi, bu yerdagi hislar tug‘yoni hamisha kitobxonni kurashga chorlaydi; bu hol qahramonga qandaydir shijoat, romantik tus baxsh etadi. O‘tkir Hoshimovning tengdosh qalamkash do‘sti Shukur Xolmirzaev: *“O‘.Hoshimovning ijodida kuchli, jiddiy qahramonlar paydo bo‘lyapti. Men bu yozuvchi do‘stimni kuzatib, ijodini o‘zimcha tahlil etib yurgan qalamkash sifatida shuni dadil ayta olamanki, O‘tkirdagi uslubiy*

izlanishlar – uning qahramon tanlashida aks etmoqda”,⁴⁰ - deganida to‘la haq. Bunda u birinchi galda “Nur borki, soya bor”dagi Sherzodni nazarda tutgan. Darhaqiqat, Sherzod jo‘shqin hayot kishisi, u inson shanini, erkini hamma narsadan ustun qo‘yadi. U har qanday og‘ir, murakkab sharoitda ham etiqodiga sodiq qoladi, Shu bilan birga yuksak etiqodni, orzu hayollarini barqaror etish uchun dadil kurash olib boradi, turmush muammolariga dadil chora izlaydi.

Xullas, ijodkor izlanishlarida milliy ma’naviyat ifodasi markaziy o‘ringa chiqadi. Tushunchaning keng mazmuni asarlarda turli xil tarzda namoyon bo‘ladi. Jumladan, «Urushning so‘nggi qurboni», «O‘zbeklar», «Ikki eshik orasi», «Nur borki, soya bor» kabi badiiy namunalarida ruhiy munosabatlar ijtimoiy hayot hamda davr tabiati vositasida oydinlashsa, «Tushda kechgan umrlar», «Bahor qaytmaydi», «Odamlar nima derkin» kabi poetik polotnolarda inson ichki dunyosi kolliziyasi chuqur ishlanganligining guvohi bo‘lamiz. San’atkor asarlarida tarixiy kolorit ijodiy koordinatalarni belgilaydi. Biroq voqealar rivojiga xronologik aniqlik talabini qo‘yish mumkin emas. Negaki, ijodkor hayotiy aqidani qayta ishlaydi, unga sayqal beradi va yuqori dinamik mohiyat shakllantiradi.

⁴⁰ Uslub, badiiy shakl muammolari, (Yozuvchi Shukur Xolmirzayev bilan suhbat). U.Normatov. Yetuklik. -T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. 352-bet.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

O'zbek adabiyotini darslarida o'quvchining kitobxonlik darajasi, o'qilgan asarni tushunishning chuqurligi aniqlanadi. O'zbekcha nutqning rivojlanish darajasi belgilanadi. O'zbek adabiyoti darslarida adabiy asarlarni o'rganishdan maqsad o'zbekning ruhiyatini anglatish orqali o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir. Buning uchun o'quvchi o'zga abiyotning nazariy asoslari bilan ma'lum darajada tanish bo'lishi talab etiladi. Qolaversa, nazariy tushunchalarni bilgan o'quvchi badiiy hodisani tahlil qilganda, asar haqida gapirganda fikrini asosli ifodalay oladi. Ayni vaqtda badiiy asar o'rganish adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish uchun emas, balki adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish badiiy asarlarni to'laroq anglash uchun kerakligi hamisha diqqat markazida bo'lishi lozim. Ular o'rganilgan asarning badiiy go'zalligini ochish uchun kerak. Bu o'rinda birinchi planda adabiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki adabiy asarlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining ma'naviyatini boyitish turadi. O'zbek adabiyoti darslarida muayyan asarni o'rganishda uni yaratgan adib hayotidan shu asarning yaratishga doir faktlardan foydalanish katta samara beradi. Yozuvchi shaxsiyatiga xos xususiyatlar, uning hayotida kechgan voqea-hodisalar badiiy asar mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatadi, singib ketadi. Ma'lumki, har bir kishining ko'nglida ikkinchi bir kishining hayotiga, ayniqsa, mashhur kishi bo'lsa, juda katta qiziqish yotadi. Darslarda yozuvchining shaxsiga qancha jiddiy va chuqur kirib borilsa, o'quvchi uni shaxs sifatida qancha ko'p va xo'b bilsa, uning asarlari ham shunchalik chuqur o'zlashtiriladi. Bugungi pedagogika-psixologiya fani shuni isbotlab berdiki, tarbiya samarali bo'lishi uchun bolada shakllantirilishi lozim bo'lgan har bir ma'naviy sifatga unda ijobiy munosabat uyg'otilishi kerak. "Uzliksiz adabiy ta'lim konsepsiyasi"da ham shunday ta'kidlanadi: *"Ayni vaqtda o'smirga ezgu ma'naviyat fazilatleri, go'zal insoniy amallar bevosita ko'rsatilsa va tarbiyalanuvchiga majburan tiqishtirilmay, ruhiyatiga tabiiy ravishda, zo'rliksiz*

*singdirilsa, bola ma'naviyatining ajralmas sifatiga aylanadi. O'zaro muomala, munosabat deb atalmish qiyin bir mexanizmning amalga oshirilishi o'sha munosabatlarning ijobiy yoki salbiyligiga bog'liq"*⁴¹.

Yangilangan pedagogika uchun ma'naviyati boy, qarashlari tiyrak, fikrlari sog'lom kishilarni tarbiyalash birinchi o'rinda turadi. Sog'lom fikrli shaxslar jamiyatning taraqqiyotini to'g'ri belgilaydilar. Ma'naviyati to'g'ri shakllangan insongina ilmga intiladi. Inson ruhiyatining, ichki dunyosining qanchalar boyligi uning turmush tarzini belgilaydi. Har bir konkret insonning saviyasi birlashib, millatning umumiy saviyasini belgilaydi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Mana shu fazilatlarining barchasini to'g'ri tashkil etilgan adabiyot darslari shakllantiradi. O'zbek adabiyoti darslari adabiy-badiiy, ilmiy-ijodiy bir spektaklga aylanishi kerak, toki unda har bir o'quvchining o'z roli, o'rni, vazifasi bo'lsin.

Adabiyot darslarida har bir o'quvchining shaxsi, hayoti, kayfiyati o'qituvchining diqqat markazida turishi lozim. Adabiyot darslari inson ma'naviyati bilan shug'ullanar ekan, adabiyot o'qituvchisi kasbining asosi – amaliy insonshunoslik bo'ladi. O'qituvchi har bir o'quvchida shaxsni, insonni ko'rishi va uni chuqur bilishi shart. Adabiyot darslarida, ayniqsa, o'zbek adabiyoti darslarida hech bir harakat, hech bir ish shunchaki qilinmasligi zarur. Hammasi yaxshilab o'ylangan, puxta rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Adabiyot o'qituvchisi darslarda ko'pincha bo'lib turadigan kutilmagan, tasodifiy muammolarni ham oldindan ko'ra bilishi va ularga tayyor turishi kerak.

O'zbek adabiyotini ham ulkan bir daraxtga qiyos qiladigan bo'lsak, uning kundan-kunga yangicha ko'rk ohib, rivojlanib borishida tom ma'noda ildiz vazifasini bajarayotgan ijodkorlarimizning o'rni beqiyosdir. O'zining ibratli hayot yo'li hamda mazmunli asarlari bilan osha adabiyot beb atalmish daraxtni ozuqa bilan taminlab turgan adiblarimizdan biri bu, shubhasiz O'tkir Hoshimovdir. Adib haqida gap ketganda taniqli munaqqid Umarali Normatovning quyidagi fikrlari harakerlidir. "Ilk qissasi "Cho'l havosidan" tortib, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"

⁴¹ Uzluksiz adabiy ta'lim konsepsiyasi. -T.: O'zbekiston PFITI, 1995. 10-b.

kitobiga qadar, barcha asarlariga xos mushtarak holat shuki, ular betakror, benazir, sirli musiqiy ohang bilan yozilgan. Muallif qo‘lidagi qalam go‘yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she’rdek, dostondek o‘qiladi, ular ysama sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko‘p ovozi simfoniya eslatadi”⁴². Yuqoridagi fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, O‘tkir Hoshimovning asarlari xalqchilligi, yuksak falsafiy mushohadaga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Ta’lim jarayonida O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodini o‘rgatib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda adib asarlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni o‘qigan o‘quvchida tabiiy ravishda onaga, vatanga, yor-u do‘stga nisbatan chiksiz mehr-muhabbat, urish, jaholat kabi salbiy illatlarga nisbatan nafrat tuyg‘usi shakillanadi. Demak, bemalol aytish joizki, ta’lim jarayonida O‘tkir Hoshimov ijodini o‘rgatish, komil inson tarbiyasida tayanch nuqta vazifasini bajara oladi. Bunday asarlarni topish, ularni maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quv dasturiga kiritish har jihatdan foydalidir. Shu o‘rinda bir savol tug‘ilishi mumkin. Xo‘sh, ularni o‘quvchiga yetkazish, asarning mazmun-mohiyatiga ularni oshno qilish uchun nima qilish kerak? Shu o‘rinda professor B.To‘xlijevning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratishni joiz topdik. B.To‘xlijev shunday deydi: *“Adabiyot o‘qitish uchun maxsus fan kerakmi? Jamiyatda shunga ehtiyoj bormi? Ta’lim bosqichlarida adabiyot fanini yaxshi o‘rganish va o‘rgatish uchun adabiyot muallimlari qayg‘urishi kerakmi yoki adabiyotshunoslarmi, pedagoglarmi yoki ruhshunos-psixologlarmi? Albatta, bunday savollarning keti uzilmaydi. Ular necha marotaba berilgan edi, bugun ham berilmoqda. Ularni ertaga berilmay qolishi amri-mahol”*.⁴³ Asar qanchalik yaxshi yozilgan bo‘lmasin, uni o‘quvchiga yetkazib berish talabga javob bermasa, bu asarni bir uyum qog‘ozdan farqi yo‘q. domla takidlaganidek, adabiyot fanini yaxshi o‘rgatish va o‘qitish uchun kim javobgar? Adabiyot o‘qituvchisimi yoki

⁴² Normatov.U Yangi o‘zbek adabiyoti. T.; Universitet, 2007-y,149-b

⁴³ To‘xlijev.B Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.; Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-y,3-b.

bo‘lmasa adabiyotshunoslarmi? Afsuski, bu va bunga o‘xshash savollar bugungi kunning ham, eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Buni qanday hal qilish kerak?- degan savolga hali hanuz javob topilgan emas. Sevimli yozuvchimiz Said Ahmad: «O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas doston deb atashni istar edim. U qo‘shiqday o‘qiladi, uni o‘qib turib o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi», -deydi.


Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun asar “Dunyoning ishlari” deb nomlanadi?
2. Adibning onasiga bitgan “Iltijo” sini o‘qib, o‘zingizda paydo bo‘lgan his-tuyg‘ularni bayon qiling.
3. Adibning “Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi” degan so‘zlarini izohlab bering.
4. “Onalar mehri beqiyos” mavzusida insho yozing.



O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodini o‘rganishda quyidagi “Klaster”dan foydalanish mumkin.

O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi

Romanlari



<i>“Nur borki, soya bor”</i>	<i>“Ikki eshik orasi”</i>	<i>“Tushda kechgan umrlar”</i>
------------------------------	---------------------------	--------------------------------



**“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”da yozuvchining
hayotiy falsafiy qarashlarining ifodalanishi**

**Tabiat, jamiyat,
inson haqidagi
falsafiy
mushohadalar**

**Farzandlarga
o`gitlar**

**Sakkizinchi
mo`jiza**

**Tabassumga
moyil gaplar**

Urushlar haqida

Bolalik-poshsholik

«Qanday» organayzerini to`ldiring

**Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi
va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.**

O'.Hoshimov asarlarining o'ziga xosligi nimada?

Qanday?

Qanday?

Qanday?

Qanday?

Qanday?

Qanday?



FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab k'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	O'.Hoshimov ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini belgilang.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring	
(U) fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	O'. Hoshimov asarlari xalqchilligi nima bilan belgilanadi
(F) Fikringizni bayon qiling	
(S) Fikringiz bayoniga sabab	
(M) Ko'rsatilgan sababni isbotlovchi misol keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

O'quvchilarni faollashtirish uchun savollar:

1. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda yozuvchining mahorati nimalarda ko'rinadi?

2. Yozuvchi g'oyasini ochishda badiiy detalning o'rni qanday?
3. Yozuvchi Ona siymosini qaysi asarlarida aks ettirgan?
4. "Dunyoning ishlari" qissasining yozuvchi ijodiy faoliyatini o'rganishdagi ahamiyati nimada?
5. Yozuvchi dramalarining ijtimoiy ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?
6. "Quyosh tarozisi" hikoyasining badiiy-estetik ta'siri nimalar bilan o'lchanadi?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q - men uchun yangi ma'lumot

- men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	Q	-	?
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				

O'quvchilarda yuksak insoniy tuyg'ularni shakllantirishda badiiy asarlar tahlili va talqinidan foydalanish, o'quvchilar faolligini ta'minlashga, o'quvchi shaxsini, unga xos ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or metod va usullarni qo'llash ham yuqori samara beradi.

Umumta'lim maktablarining beshinchi sinflari uchun mo'ljallangan dastur va darsligida O'tkir Hoshimov hayoti va ijodini o'rganish quyidagicha ifoda etilgan: **1) O'.Hoshimovning hayoti va ijodi. "Dunyoning ishlari" qissasi.**

“Alla”, “Gilam paypoq”, hikoyalari (1 soat); 2) “Iltijo”, “Qarz” hikoyalari o‘qish, tahlil qilish (1soat) 3) “Oq marmar, qora marmar” hikoyasi. Hikoyalar tahlili (1 soat) 4) Nazorat ishi. Tassurot yozish: “Ona-buyuk inson”, “Mening onam hammadan yaxshi”. Jami 4 soat ajratilgan.

O‘tkir Hoshimov hayoti hamda uning “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan “Alla”, “Haqqush”, “Qarz”, “Gilam paypoq”, “Iltijo” “Oq marmar, qora marmar” hikoyalari o‘rganish uchun ajratilgan 4 soatni quyidagicha taqsimlash mumkin:

1-soat. O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish. Bunda o‘quvchilarga adibning hayot yo‘li, yozgan asarlari hamda yozuvchi hayoti va ijodini muhim jihatlarini yoritishda adibga zamondosh bo‘lgan munaqiblarning adib haqida aytgan fikrlarini keltirish mumkin.

2-soat. “Dunyoning ishlari” haqida ma’lumot. Shu qissaga kiruvchi. “Alla”, “Gilam paypoq” hikoyasi tahlili. Dars uchun ajratilgan bu soatda o‘quvchilarga “Dunyoning ishlari” qissasi haqida ma’lumot berish. Ya’ni qachon yaratilgan, asar muallifining hamda boshqa adiblarning asar haqida yozgan fikrlari bilan o‘quvchilarni tanishtirish. Asar yozuvchi nigohida qanchalik katta mazmun anglatishini o‘quvchilarga tushuntirish. “Gilam paypoq” hikoyasi tahlili orqali esa, hikoyadagi bola hamda, adibning bolalik chog‘laridagi xotiralarini taqqoslab, umumiy o‘xshash jihatlarini aniqlash. Hikoyani o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarni asar va unda ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalar haqidagi fikrlarni bildirishga davit etish orqali, ularda mustaqil fikrni shakllantirish.

3-soatda “Oq marmar, qora marmar”, “Haqqush”, “Qarz”, “Iltijo” hikoyalari tahlili. Bu dars moboynda, hikoyalarni sodda va tushinarli tilda tahlil qilishdir. Tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar faolligini birinchi darajaga chiqarish, hikoyalarda tarannum etilgan onalar obraziga bola etiborini tortib, ulardagi onalarni farqli va o‘xshash jihatlarini aniqlash. Chiqqan natijalar haqida, bahs-munozaralar tashkil qilish.

4-soatda. “Dunyoning ishlari” qissasiga kiruvchi barcha hikoyalar xususida umumiy suhbat uyushtirish. Bu dars jarayoni davomida O‘tkir

Hoshimov hayoti va ijodi, “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan hikoyalar bilan tanishgan o‘quvchi ongida umumiy fikrni shakllantirish. Hikoyalar qahramonlari hamda ularda tasvirlangan ona obrazlarini bir-biriga bog‘lab turuvchi xususiyatlar va asardagi o‘quvchi ilg‘ab olishi uchun ifodalangan tuyg‘ularni yuzaga chiqarish uchun kichik nazorat ishi shaklda insho olish. Demak, reja tayyor. Ana endi bu rejaning har birini alohida san‘at asari darajasiga chiqarish uchun qanday vazifalarni bajarish kerak degan savolga javob berishga harakat qilamiz.


Yuqori sinfga endigina qadam qo‘ygan 5-sinf bolasi, badiiy asar haqida endigina tasavvur hosil qilayotgani, bu olam uning uchun boshlang‘ich sinfdagi kabi oddiy emas, balki anchayin murakkab ekanligini hisobga olgan holda rejalar tuzish. Bu rejalar asosida bola ongida bu sohaga mehr o‘yg‘atish, uni bu olamga yetaklab kirish o‘qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Albatta, maktabda adabiyot darslarini tashkel qilishda, o‘qituvchi shaxsi yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu borada so‘z ketganda, quyidagi fikrlar ahamiyatlidir: “O‘qituvchi shaxsiyatiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qiyotgan predmetni chuqur bilishi, uning metodikasini chuqur o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi, bolalarni shu predmetga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.”⁴⁴ Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, har bir dars jarayonini tashkel qilayotgan pedagog, avvalo, shu mavzu haqida mustaqil tayyorgarlikka ega bo‘lishi, tashkillashtirilayotgan darsning hayoliy strukturasini yarata olishi darkor. Shundagina dars har tomonlama mukammal bo‘lib, kutilgan natijani berishi mumkin.

3.2. Dars ishlanmasi.

5-sinflarga yozuvchi hayoti haqida ma’lumot berishdan avval, o‘quvchilar uchun hali notanish bo‘lgan adib shaxsiyatini gavdalantirish. Shularni inobatga olgan holda bir soatlik dars ishlanmasini shakllantirishga harakat qildik. O‘quvchilarga biror bir dars jarayoni tashkel qilinar ekan bu avvalo, ma’lum bir maqsad yo‘lida amalga oshiriladi. O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga

⁴⁴ Pedagogika.KHK uchun darslik. T.; 2008-y, 28-29-b

bag'ishlangan dars jarayonini tashkil qilishda quyidagi maqsadlarni bajarishni oldimizga maqsad qilib belgiladik.




Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga o'zbek adabiyotining taniqli namoyondasi O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida bilimlarni berish. Adibning o'zbek adabiyoti xazinasiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berish. O'quvchi ongida yozuvchi shaxsiyatini shakllantirib, asarlarida ilgari surilgan umumbashari g'oyalarga ularni oshno qilish.

Tarbiyaviy maqsad: Mavzu mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida, yozuvchining bolalik yillari o'tgan davr, urish daxshatlari, zamon qiyinchiliklari haqida adibning o'z hayoti haqidagi fikrlarini keltirib, ushbu xotiralarni bugungi kun bilan solishtirish. Yozuvchi yashagan davr va bugungi kunda kundan-kunga chiroy ochib borayotgan istiqbolli kunlarni taqqoslash orqali, bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash. Bundan tashqari asarlaridagi tasverlar, qahramonlar holatini to'g'ri tahlil qilib, ularning qalb kechinmalarini o'quvchi guvohligida sharxlash orqali, bola qalbida ona mehri, vatanga sadoqat, ona tabiatga muhabbat kabi tuyg'ularni shakllantirib, har tamonlama yetuk komil insonni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavzuni o'quvchilarga yetkazish moboynda, o'quvchi faolligini birinchi darajaga ko'tarib, asarlar tahlilida, ularni asardagi voqea-hodisalarga munosabat bildirishga undab, o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Mavzudan nazarda tutilgan maqsadlarni, dars

bosqichlarining ketma- ketligi asosida amalga oshirilishi, darsni talab darajasida shakllanishini taminlaydi. Dars bosqichlarining ketma-ketligini quyidagicha sxemalashtirib olamiz.



Yuqoridagi jadval asosida: Tashkiliy qism orqali o‘quvchilar bilan salomlashib, ularning davomadini aniqlagandan so‘ng, o‘quvchilar diqqatini dars jarayoniga jalb qilish uchun, kundalik, yurtimiz hayotida yuz berayotgan yangiliklar haqida suhbatlashib dars jarayoniga bog‘lash.

Yangi mavzu bayoni: O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi hali o‘quvchilarga notanish mavzu ekanligini hisobga olgan holda, sinf taxtasiga mavzu yozilgach, o‘quvchilarga adibning hayot yo‘li haqida ma’lumot beriladi. Bu jarayonda darsni adibning o‘zi haqida yozgan xotiralaridan foydalanib boshlash, o‘quvchini yangi darsni tez va oson o‘zlashtirib olishini taminlaydi. Masalan: yozuvchi o‘zi to‘g‘ilgan yillar bilan bog‘liq voqealarni quyidagicha xotirlaydi: *“Oyim bir gapni*

ko'p aytardi: Sen tug'ilganingda qiyomat qoyim bo'lgan edi. Lagerdagi o'ris xotinlar urush boshlanibdi deb yig'lagan, men ammamning buzog'i, hayron bo'lgandim. Urush allaqayoqda bo'layotibdi-yu, bular nega dod solidi degandim. Keyin aqlim yetdi..."⁴⁵ bu adib hayotiga tegishli bo'lgan tarjimayi holdan ko'rinib turibdiki, uning bolalik yillari ayni urush yillariga to'g'ri kelgan. Yozuvchining tug'ilib o'sgan joyi, ota-onasi haqida gap ketganda, adib "Mashaqqatli safar" tarjimayi holida otasi va onasi haqida shunday yozadi: *"Otam eskicha alifbodagi kitoblarni ham, zamonaviy gazitalarni ham muttasil o'qib borar, kamgap, hiyla tajang, ammo nihoyatda haqparast odam edi... Onam- Hoshimova Hakima esa, otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Qo'shning mushugi tug'sa ham joni achigandir deb achinar, ko'chada biror bola yig'lab o'tirgan bo'lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biror sabab bilan biz bolalarni qarg'asa, o'zi ham qo'shilib yig'lab yuborar, o'sha zahoti ko'nglimizni olishga harakat qilardi... onam ikki gapning birida maqol ishlatmasa turolmas, o'ta sodda, o'ta yuvosh bo'lgani bilan ertaklarni, afsonalarni koni edi..."*⁴⁶ adibning tarjimayi holini bolalarga so'zlab berish, yaxshi tarbiyaviy samara beradi va yozuvchini ularga qalban yaqinlashtirishga xizmat qiladi. O'tkir Hoshimov ijodini o'quvchilarga so'zlab berish jarayonida, darslikda keltirilganidik yozuvchining ijodiy faoliyati 5-sinfadan boshlanganiga kuchliroq etibor qaratish darkor. Chunki, adib ijodini ayni o'quvchilar yoshida boshlaganini eslatish, o'quvchilar orasida badiiy ijodga moyili bor bolalarga ijobiy ta'sir etadi. 5-sinf o'quvchilari uchun dars jarayonini tashkil qilishda yozuvchi hayoti haqida, fikr yuritish bilan bir vaqtda, slaydlar asosida ushbu ma'lumotlarni o'quvchilarga ko'rgazmali qurol sifatida yetqazib borish, yetkazilgan ma'lumotlarni o'quvchi ko'proq esda saqlab qolishni ta'minlaydi.

⁴⁵ Adabiyot. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. 6-sinf.T.; Ma'naviyat. 71-bet

⁴⁶ O'.Hoshimov. Notanish orol. T.; Yosh gvardiya, 1990-y, 6-7-b

Raqamlarga

yashringan

sinoat

1441-Yil 5-avgust...?

5-sinfda o'qib yurgan vaqtidayoq....?

1991-yil....?

1996-yil....?

Yuqoridagi jadval, raqamlarni mustahkamlash qismida, kompyuter va o'quvchilar orasidagi savol-javob tariqasida beriladi. Bu slaydni o'quvchilarga namoyish qilishdan oldin, shu ko'rsatilgan sanalarga bilan bog'liq voqealarga, adib hayoti haqidagi ma'lumotlarni yetkazish jarayonida alohida to'xtalib o'tiladi.

Mustahkamlash orqali, darslikda berilgan ma'lumotlar bilan tanishgan o'quvchiga, o'rgangan narsalarini yana bir bora takrorlab olishi uchun munozarali savollar beriladi.

1441-yil 5-avgust....?

5-sinfda o'qib yurgan vaqtlaridayoq

1991-yil...

1996-yil....

2001-yil....

Adib tavallud topgan sana

She'r mashq qila boshlagan

O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni

Mehnat shuhrati ordeni

Buyuk xizmatlari uchun orden

Siz buni bilasiz?

-O'tkir Hoshimov haqida nimalarni o'rgandingiz?

-Yozuvchi qachondan ijod qila boshlagan?

-O'tkir Hoshimov birinchi asari orqali kimning e'tiborini qozongan?

-Siz ham she'rlar, hikoyalar yozasizmi, aytib bering?

Uyga vazifa qismida o‘quvchilar uyda mustaqil o‘zlashtirishlari uchun, adibning hayoti va ijodini o‘qib kelish hamda mustaqil ravishda kichik bir asarcha yozib ko‘rishni topshirish. Uyga vazifa qilib bu topshiriqni berish yozuvchi hayotidan ilhomlangan o‘quvchini, qalam ushlashga undaydi. Bu esa, o‘quvchi qalbida o‘ziga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini yuzaga chiqishiga olib keladi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishimiz "O'tkir Hoshimov ijodida mavzu va obrizlar talqini" mavzusida bo'lib, biz unda adibning romanlari, maktab darsligiga kiritilgan hikoya, qissa va romanlarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, unda ifodalangan ummumbashariy g'oyalarni va unda "inson konsepsiyasi"ni ishlab chiqish hamda o'qitish usullarini o'rganishga harakat qilganmiz. Shuningdek, romanlarda ko'tarilgan davr muammolari, mavzu va obrazlar talqinini o'rganib ular o'rtasida uzviy zanjirni aniqladik.

Noyob iste'dod sohibi O'tkir Hoshimov adabiyotga Abdulla Oripov, Omon Muxtorov, Shukur Xolmirzaev singari bir qator tengdoshlari bilan birga kirib keldi. O'sha paytda adabiyotimizning Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda singari ulkan yozuvchilari hayot bo'lib, ularning nazariga tushish hammaga ham nasib qilavermasdi. O'tkir Hoshimov esa Abdulla Qahhordek mashhur san'atkor e'tiborini jalb qilgan yoshlardan edi.

Roman, qissa, hikoyalarida so'z san'atining azaliy bosh muammosi - inson takdiri va qalbining badiiy tahlili ham mavjud edi. Muallif dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda ko'p o'rinlarda personajlar ruhiyatidagi g'oyat nafis jarayonlarni san'atkorona ifoda etardi. "Cho'l havosi", "Muhabbat", "Nigora", "Shamol esaveradi" nomli hikoya va qissalar shundan dalolatdir.

Keyinroq u dolzarb, ijtimoiy muammolar talqiniga ko'proq moyillik bildirib, ayni zamonda bevosita ma'naviyat, ruhiyat tahliliga bag'ishlangan asarlar ustida ish olib bordi. O'tkir Hoshimov asardan-asarga o'sib bordi. Unda nafosat tuyg'usi behad kuchli. Hatto u aldangan odamning ma'naviy inqirozi, fojeasi, halokati tasvirida ham shu tuyg'usini saqlab qoladi. Ayniksa, u yaxshi, oliyjanob, ma'naviy barkamol odamlar qalbi tahlilida o'zini nixoyatda erkin his etadi. Uning ijobiy qahramonlari aksari go'dakday beg'ubor, nafosat tuyg'usiga boy, hissiyotli, o'ta ta'sirchan odamlardir.

Yozuvchi ijodiga xos liro-romantik tarona uning "Dunyoning ishlari" qissasida avj pardalarda jarangladi. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to'g'risidagi o'ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi,

baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o'zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o'zbek kitobxoni unda o'z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo'ladi. Qissadagi "Alla", "Oq marmar, qora marmar" kabi novellalarda onaning farzandi qalbida qoldirgan armonlari haqida o'tkir yozilgan. Yozuvchining birinchi romani - "Nur borki, soya bor"da azaldan kishilik jamiyatining falsafasi bo'lmish "nur" va "soya"lar orasidagi kurash, tortishuv fonida yoritiladi. Asarda ko'pgina hayotiy, muhim ahamiyatga ega muammolar ko'tarilgan edi.

Yozuvchini kundalik dolzarb ijtimoiy masalalar emas, ko'proq azaliy ma'naviy muammolar, inson takdiri, uning qalbi jumboqlari kiziktiradi. Bu narsa "Ikki eshik orasi" romanida ayniqsa, ravshan ko'rindi. Bu bilan adib ijodiy yo'lining etuklik bosqichi boshlandi. Yozuvchining "Ikki eshik orasi" romani ham kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Roman 1986 yilning eng yaxshi asarlaridan deb topilib, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgandi. "Ikki eshik orasi" romanida o'z davrining muhim muammolari qalamga olindi, o'sha yillar voqea-hodisalariga munosabat bildirildi. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi og'irliklarini yelkasida ko'targan, unda mardona g'olib chiqqan kishilardir. Umuman olganda, romanda butun jamiyat kishilarining urush davridagi fidokorligi o'zining badiiy ifodasini topgan. Roman qahramonlaridan biri Muzaffar - urush davrida muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, 70-yillarga kelib farovon turmushga erishgan Yoshlarning timsoli tarzida beriladi. Romanning sarlavhasidan tortib, deyarli butun mazmunigacha yozuvchi jiddiy falsafiy ma'no yuklashga intilgan. Xususan, u "Ikki eshik orasi" deganda inson umrini, ya'ni tug'ilgandan o'lgungacha bosib o'tgan yo'lni ko'zda tutadi. Muallifning g'oyaviy falsafasiga ko'ra bu yo'l juda murakkab va ziddiyatli bo'lib, uni muvaffaqiyat bilan bosib o'tishi uchun insondan katta matonat, iroda, bilim va jasorat talab qilinadi. Asardagi ko'pchilik qahramonlar, xususan, Oksoqol, Qora amma, Robiya, Shomurod, Kimsan huddi shunday jasoratli va ruhan boy kishilar bo'lib, ko'p jihatdan yozuvchining g'oyaviy maqsadini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Muallif falsafasiga ko'ra o'z umrini sharaf bilan bosib o'tmog'i uchun insondan katta matonat va jasorat talab kilinishining sababi

shundaki, u o'z hayoti davomida og'ir kurashlar girdobidan, yengib bo'lmay to'siqlardan o'tishga majbur bo'ladi. Asarda huddi shunday inson hayotining to'siqlari, illatlari sifatida Umar zakonchi, Ra'no, Zuhra kabi shaxslar timsoli yaratilgan bo'lib, ular romandagi kurashlar, to'qnashuvlar, ma'naviy ixtiloflar keskinligini, tarangligini oshirishga imkon tug'dirgan.

Hayotdagi illatlarga qarshi ayovsiz o't ochish istagi O'tkir Hoshimovni "Ikki eshik orasi" romanidan keyin tadrijiy ravishda hajviyotga murojaat qilishga olib keldi. Oqibatda uning "Ikki karra ikki - besh" qissasi maydonga keldi. Yozuvchining ilgarigi asarlarida ahyon-ahyonda hajviyot uchrab turar edi. "Ikki karra ikki - besh" qissasi esa, ulardan butunicha hajviy uslubda yozilganligi bilan farq qiladi. Hajviyot tig'ini hayotdagi martabali kishilarga, katta raxbarlarga, xususan, raislarga qaratgani va ularning ma'naviy tubanligini ro'yi-rost fosh qilishga intilgani bilan yozuvchi qissaning ko'p saxifalari ta'sirchan va qiziqarli bo'lib chiqishiga erishgan. Faqat dalillash san'atining etishmaganligi va ayniqsa, raisning o'g'li o'z otasiga qarshi keskin kurashga kirishishi yaxshi asoslanmaganligi sababli qissa 80-yillar o'zbek hajviyotidagi sezilarli hodisa darajasiga ko'tarilmay qoldi.

Bu asarlarda O'tkir Hoshimovning inson ma'naviy olamini, psixologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli foydalangan. Ichki monologlar qo'llashda yuqoridagi asarlarda boshlangan usuldan yozuvchi "Tushda kechgan umrlar" romanida yanada ustalik bilan foydalandi. "Tushda kechgan umrlar" romanida voqealar kamrovi juda keng: 30-yillarning mash'um "qatag'on" qilish manzaralari, 80-yillarda Afg'oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo'lgan "o'zbek ishi" mojarolari. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog'lashda, ular orasiga "biriktirish nuqtasini" topishda muallif ichki monologdan unumli foydalanadi.

Yozuvchi endiliqda badiiy asar yaratishda publitsistika bajarishi lozim bo'lgan vazifani sekin-asta o'z zimmasidan soqit kilmoqda. U kundalik dolzarb

masalalar tahlilini publitsistikaga berib, e'tiborini o'zining azaliy ishi - inson qalbi jumboqlari tadqiqiga astoydil qaratmoqda.

Romandagi Rustam, Shahnoza kabi qahramonlar ruhiy olamining talqini huddi shunday xulosa chikarishga imkon beradi. Faqat roman kompozitsiyasining nomukammalligi uning adabiyotda juda katta hodisa darajasiga ko'tarilishiga halakit bergandek tuyuladi. Kompozitsiyadagi tarqoqlik, ayniqsa, Rossiyadan yuborilgan kishilar hayotiga, faoliyatiga bog'liq voqealarning, tafsilotlarning asosiy syujet chiziqlariga uzviy bog'lab yuborilmaganida yaqqol seziladi.

O'tkir Hoshimov murakkab ijtimoiy-siyosiy evrilishlarga boy ijod etayotgan adiblardan biridir. Ong va tuyg'udagi muhim o'zgarishlar ayni paytda, ijodkor hayotiy qamrov darajasining kengligini ham ta'minlamoqda. Yozuvchi doimiy va davomiy ravishda turli janr hamda yo'nalishlarda o'z qudratini sinab ko'rdi. Ammo qaysi aspektda ijod qilmasin, millat mentaliteti, sog'lom e'tiqod, milliy an'analar hamda estetik qadriyatlarga munosabat san'atkor izlanishlarining asl o'zagi bo'lib qolaverdi.

O'tkir Hoshimov asarlari poetikasini tadqiq etish shunday xulosaga olib keladiki, muayyan ijodkorning faqat o'zigagina xos badiiy uslubi, eng avvalo shu ijodkor qalbini mavjlantirgan muammolar va g'oyalarda, uning mavzu tanlash va shunga mos syujet topishda, shu hayotiy mavzuni yuksak badiiyat bilan talqin eta olishda, yirik ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni hayot haqiqatiga sodiq qolib tasvirlashda namoyon bo'ladi. Nosir asarlarini ikki jihat birlashtirib turadi. Ulardan biri poetik evolyutsiyaga ega Ona siymosi tadqiqoti bo'lsa, ikkinchi xususiyat millat mentaliteti tasnifotidir. Mazkur ikki chiziq sinkretik xarakter kasb etadiki, uni bir-biridan ajratish nihoyatda mushkuldir. Shu boisdan ishda xarakter va milliy an'analar, badiiy qahramon va ma'naviy kadriyatlar dinamik yaxlitlikda talqin qilindi. Zero, ijodiy izlanishlarning tabiati milliy mustaqillik mafkurasini yaratishda, yosh avlodni mustahkam iymon-e'tiqod, yuksak ideallar bilan tarbiyalashda, ona Vatanga sadoqat ruhini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar badiiy asarni o'qish jarayonida kitobxon muallif bilan muloqotga

kirishishini e'tiborga olsak, bu muloqotning amalga oshishi uchun lirik-subektiv ibtidoning nechog'li katta ahamiyatga molikligi anglashiladi. Biz nazarda tutgan lirik-subektiv ibtido asarning har bir nuqtasiga singdirilganki, konseptual (bilvosita kompozitsion) butunlikni ta'minlashda juda katta ahamiyatga molikdir.

Voqea-hodisalarga salbiy munosabat, inkor ruhining kuchliligi, hodisaning dahshatli manzarasini keskin, qabariq tarzda chizib berish, hodisa mohiyatini bor ziddiyatlari, qahramon ruhiyatini butun murakkabliklari bilan o'quvchiga his qildirish O'tkir Hoshimov ijodiga xos fazilatlardan biri sanaladi. Shuningdek shaxs tabiatining ayrim jihatlarinigina aks ettiruvchi asarlar bilan bir qatorda, inson ruhiyati, borlig'iga xos umumiy xarakter-xususiyatlardan alohida chizgilarga o'tuvchi tasvir uslubini namoyon qiluvchi yo'nalish inson ruhiyatining keng olam ekani, uning hech qanday qolip-u andozalarga sig'maydigan, cheksiz, turfa holatlarini badiiy jihatdan inkishof etishga urinish singari yaratilgan badiiy asarlar haqiqatdan ham an'anaviy realizm qoliplarini yorib chiqib, adabiyotda yangi badiiy hodisalarga aylanmoqda. Xususan, ushbu bitiruv malakaviy ishimizda yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega bo'lgan hozirgi o'zbek nasridagi o'ziga xos uslubga ega O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanini badiiy tahlil-u tadqiq qilish orqali joriylandi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ishning mavzusi keng bo'lib, yana ham kattaroq darajadagi ilmiy yondashuvni talab etadi. Shu ma'noda bajarilgan ishni katta ilmiy izlanishlar sari olib chiqadigan bir urinish ekanligini ta'kidlash joiz. Yuqoridagilarga tayanib shunday xulosalar chiqarish mumkin:

- milliy an'ana va ma'naviy aqida ijodkor fitrati, qahramon faoliyati hamda jamiyat ehtiyojini yagona badiiy maqsadga bo'ysundiradi;

- mavjud estetik salohiyat xarakter psixologiyasini teran ifodalash va jamiyat a'molini belgilash mezonidir;

- lirik hissiyot epik davrlararo bo'shliqlarni birlashtirib turadi. Aniqrog'i, rivoya qahramonining o'zaro aloqadorligi –umumiy sajiyasini ta'minlasa, lirizm oqimi obraz ichki dunyosini chuqurroq tavsiflaydi;

- shuuriy hissiyot va ijtimoiy munosabatlar uyg'unligi ham yozuvchi

ijodiy tamoyillarini belgilaydigan, ham timsol evolyutsiyasini aniqlashtiradigan poetik ustqurma hisoblanadi;

- qahramon ruhiy dunyosi shakllanish bosqichlari hamda yaxlitligi milliy muhit – an’anaviylik, ma’naviyat va ma’rifat uyg’unligidan oziqlanadi;

- O‘.Hoshimov asarlarida xarakter va milliylik bir-biriga o‘tib turadi. To‘g‘rirog‘i, mazkur ikki tushuncha hayotni poetik tadqiq etishning muhim ikki qirradi sifatida o‘zaro izohlangan, dalillangan hamda tartibga solingan badiiylik darajasini yuzaga keltiradi;

- adib izlanishlarida ijtimoiy munosabat insonning ruhiy-psixologik faolligi hosilasiga aylanadi;

- muayyan obrazning xronologik takomili shakllangan e’tiqod barqarorligi, ma’naviy muhit ta’siri va axloqiy tamoyillar mushtarakligini tasvir markaziga ko‘taradi;

- san’atkor badiiy obraz yaratish jarayonida xususiylikdan umumiylikka, mushohadakorlik va sintetik ifodaga intiladi. Bu holat esa o‘z navbatida odamzod tiynatining milliy mentalitet bilan erkin birikuvidan hosil bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Халқ сўзи//2016 йил 16 декабрь
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови “Халқ сўзи”//2016 йил 8 декабрь
3. Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 10-синфи учун. –Т.: 2014
4. Аҳмедов С., Қосимов Б., Қўчқоров Р., Ризаев Ш. Адабиёт (5- синф учун дарслик). Шарқ. –Т.: 2015
5. Аҳмедов С., Қосимов Б., Қўчқоров Р., Ризаев Ш. Адабиёт 5. Ўқитувчилар учун методик қўлланма). Шарқ. –Т.: 2007
6. Аҳмедов С., Қўчқоров Р., Ризаев Ш. Адабиёт (6- синф учун дарслик). Шарқ.–Т.: 2009
7. Аҳмедова Ҳ. Ўзбек тили ўқитишнинг замонавий технологиялари. –Т.: 2012
8. Тўхлиев Б, Каримов Б, Усмонова К. Дарслик-мажмуа. 2-қисм. Ўқитувчи. - Т.: 2015
9. Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимов ижодида она образи. Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. –Т.: 2011
10. Жўрақулов У. Назарий поэтика асослари. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа уйи. –Т.: 2015
11. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқитувчи. -Т.: 1992
12. Имомкаримова М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини. ф.ф.н. дисс. –Т.: 2004
13. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Ўқитувчи. – Т.:1996
14. Йўлдошев Қ., Мадаев О., Абдураззоқов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқитувчи. –Т.: 1994

15. Ковалев В.А. Поэтика Л.Н.Толстого. -М.,1983
16. Мирқосимова М. Ўқувчиларни адабий – эстетик таҳлилга ўргатиш. Ўқитувчи. –Т.: 1994
17. Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. Адабиёт ва санъат. -Т.: 1983
18. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Фан. – Т.: 2006
19. Назаров Б. Давр ва қаҳрамон//Ўзбек адабий танқидчилиги. – Т.: Фан. 2009
20. Норматов У. Насрдаги шоир//Тил ва адабиёт таълими. 2016-йил. 5-сон
21. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Маънавият. -Т: 2000
22. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. Университет. -Т.: 2007
23. Расулов А. Ардоқли адиб. Ўткир Ҳошимов ҳаёти ва ижодига чизгилар. Шарқ. –Т.: 2001
24. Саид Аҳмад. Қўрқинчли тушлар.//“Халқ сўзи” газетаси.1996
25. Узлуксиз адабий таълим концепсияси. Ўзбекистон. -Т.: 1995
26. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти -Т.: 2017
27. Ҳошимов Ў. Бу дарахтнинг номи эди яхшилик.//«Марказий Осиё маданияти» газетасининг бош муҳаррири билан суҳбат. ziiyouz.com
28. Ҳошимов Ў. Сайланма. 2 жилдлик. 1-ж. Шарқ. -Т.: 1998
29. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. IV том. Роман, қисса, ҳикоялар, ҳажвиялар, таржималар, ўйлар. Шарқ. – Т.: 2011
30. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар:4-жилд: Тушда кечган умрлар: Роман, қисса, ҳажвиялар, ҳикоялар, таржималар, ўйлар. Шарқ. – Т.: 2011
31. Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. Роман. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.- Т: 2002
32. Ҳошимов Ўткир. Икки эшик ораси: Роман. Шарқ. - Т.: 2012
33. Ҳошимов.Ў. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд. Ҳадикли тушлар.-Т: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. –Т.: 2002
34. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. Шарқ. –Т.: 2004
35. Шарафиддинов О. Эл ардоғидаги адиб. «Икки эшик ораси» романининг VII нашрига сўнгги сўз. Фан. -Т.: 2000

Internet saytlari:

- 36. www.ziyouz.com
- 37. www.literature.uz
- 38. www.ziyouz.com
- 39. www.pdfactory.com
- 40. www.lex.uz